

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Chilonzor tajribasi



«BESHCHINOR»DA OBODLIK NAFASI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi «Beshchinor» mahallasi bugun o'zining yangi qiyofasi, zamonaviy texnologiyalar asosida raqamlashayotgan xavfsizlik tizimi bilan bo'y ko'rsatmoqda. «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida muammolarni joyida aniqlash orqali hudud yanada obodonlashtirilmoqda.

2



«BESHCHINOR»DA OBODLIK NAFASI



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

– Hozirda 1507 ta xonadonda 4500 dan ortiq aholi istiqomat qiladi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rustam Xolboyev. – Asosiy maqsadimiz – mutasaddi tashkilotlar hamda mahalla yetiligi bilan hamjihatlikda go'shamizni poytaxtning eng xavfsiz va namunali maskaniga aylantirish. Ayni kunlarda ish qizg'in, daraxt va gul ko'chatlari ekilib, hudud obodonlashtirilmoqda. Ko'chalarimizning aksariyati asfalt qilingan. Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun har ikkita ko'p qavatli uy uchun bittadan sport va bolalar maydonchasi tashkil etilgan. Zamonaviy minifutbol maydonchasi esa mahalla yoshlarining sevimli maskaniga aylanib ulgurgan.

Xalqimizda «Obodlik – ko'ngildan boshlanadi», degan naql bor. Bugun nafaqat hudud balki insonlarning qalbi ham obod bo'lmoqda. Ayniqsa, muborak Ramazon oyida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan

ezgu amallar ehtiyojmand va yolg'iz yashovchi fuqarolar ko'nglini yanada ko'tarmoqda. Xususan, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kiritilgan oilalarga belgilangan moddiy yordam pullari o'z vaqtida va manzilli tarzda yetkazib berilmoqda. Mahalla nuroniylaridan biri, yakka-yolg'iz istiqomat qiluvchi 85 yoshli Ravila Dehkanovaning xonadoniga borilganda, onaxonning ko'zlarida quvonch va shukronalik aks etib turardi.

– Inson keksayganda bir og'iz shirin so'zga, e'tiborga muhtoj



bo'lar ekan, – deydi onaxon. – Davlatimizning, mahallamizning doimiy e'tiborida ekanimdan, meni yo'qlab kelishganidan boshim ko'kka yetdi. Biz kabi keksalarni unutmay, mana shunday muborak Ramazon kunlarida holimizdan xabar olib, amaliy ko'mak berayotgan Prezidentimizga ming rahmat.

Bugungi shiddatli zamonda xavfsizlikni ta'minlash nafaqat hushyorlik, balki zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lishni talab etadi. Mahalla bu borada poytaxtimizda peshqadamlardan biriga aylanmoqda. Mahallada istiqomat qiluvchi 16 yoshdan katta bo'lgan 3211 nafar aholining 90 foizidan ortig'i bugungi kunda «Mening inspektorim» platformasiga to'liq ulangan. Bu tizim orqali har bir fuqaro o'z hududiga biriktirilgan profilaktika inspektori bilan bevosita, ortiqcha ovoragarchiliksiz bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Endilikda murojatlar nafaqat tezkor qabul qilinadi, balki ularning ijrosi raqamli tizim orqali shaffof nazorat qilib boriladi.

– Hozirda hudud «sariq» toifada bo'lsa-da, kelgusida «yashil» toifaga o'tish uchun barcha sa'y-harakatlar qilinmoqda, – deydi hudud profilaktika katta inspektori, mayor Alisher Nazarqulov. – Tumanda tashkil etilgan idoralararo ishchi guruhi, mahalla yetiligi hamda aholimiz bilan birgalikda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Raqamlashtirish bizga huquqbuzarliklarning oldini olishda katta yordam bermoqda. Ayni damda mahallaning kirish-chiqish yo'llari, odamlar gavjum bo'ladigan maskanlarga jami 60 ta zamonaviy (Face-ID, PTZ va DRB) videokuzatuv kameralari o'rnatilgan. Bu esa hududni to'liq nazorat qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, 28 ta ko'p qavatli uyning har birida «tashvish tugmalari» o'rnatilgan.

Mahallada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida hudud nafaqat poytaxtning eng xavfsiz maskaniga, balki aholining ertangi kunga bo'lgan ishonchi mustahkamlangan fayzli go'shaga aylanmoqda. Mahalla obod bo'lsa, yurt obod bo'ladi, mahallada mehr oqibat ufurib tursa, tinchlik va baraka barqaror bo'laveradi. «Beshchinor» esa kelajak mahallalarining yaqqol timsolidir.



KIBERJINOYATCHILIK – DOLZARB MUAMMO

Raqamli texnologiyalar rivojlangan sari kiberjinoyatchilik jamiyatimizga katta tahdid solmoqda. Ayni kunlarda «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamkorligida respublika miqyosida keng qamrovli targ'ibot aksiyasi davom etmoqda.

Chilonzor tumanidagi «Abu Saxiy» savdo majmuasida «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi Toshkent shahar kengashi hamda «Tashkent trade center» xorijiy korxonasi bilan hamkorlikda «Ogoh bo'ling: firibgar!» shiori ostida kiberfiribgarlik jinoyatlarining oldini olish bo'yicha targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Unda soha mutaxassislari kiberfiribgarlikning eng keng tarqalgan turlari, xususan,



bank kartalaridan mablag'larni o'g'irlash, soxta havolalar (fishing) va ijtimoiy muhandislik usullari haqida batafsil ma'lumot berishdi.

– Bugun jinoyatchilik ayniqsa raqamli olamda kuchaymoqda, – deydi O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, pedagogika

fanlari doktori, dotsent, podpolkovnik Ruslan Matchanov. – Binobarin, qonun ijodkorligida nafaqat jazo muqarrarligini, balki kibertahdidlarni aniqlashning profilaktik tizimini yaratishimiz lozim. Firibgarlar inson psixologiyasiga ta'sir o'tkazmoqda. Biz esa bunga qarshi huquqiy immunitetni shakllantirishimiz shart.

Tadbir savol-javoblarga boy bo'ldi. Chunki bu muammo barchani birdek o'ylantirayotgani bor gap. Korxona xodimlari hamda mahalla ahli o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislarga yuzlanishdi va atroflicha javob olishdi. Tadbir yakunida ishtirokchilarga firibgarlik qurboniga aylanmaslik bo'yicha amaliy eslatma va qo'llanmalar tarqatildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV olgan suratlar.

Toshkent shahri.

Hududlarda

Jizzax viloyatida jamoat xavfsizligini «poytaxt namunasi» asosida ta'minlash choralari ko'rilmogda. Jumladan, Jizzax shahridagi «Obod», «Qaliya», «Nurliobod», «Yoshlik» va «Bunyodkor» mahallalaridagi kriminogen vaziyat, olib borilayotgan profilaktik ishlar o'rganilib, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari va boshqa mutasaddilar bilan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

MAHALLALAR O'RGANILDI



Uchrashuvlarda jinoyatchilikka olib kelayotgan omillar, ayniqsa, nizoli oilalar bilan ishlash, ijtimoiy profilaktika choralari kuchaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Ta'kidlandiki, huquqbuzarliklarning oldini olishda faqat jazo emas, balki barvaqt profilaktika, manzilli yondashuv va har bir oila bilan alohida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rganishlar jarayonida mahallalardagi mavjud ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, «Obod» mahallasida chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqish, elektr tarmoqlaridagi nosozliklarni bartaraf etish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida zarur yo'l belgilarini o'rnatish bo'yicha takliflar bildirildi. «Qaliya» mahallasida esa jamoat xavfsizligini yanada mustahkamlash uchun videokuzatuv kameralari va tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish zarurligi qayd etildi.

Aytish joizki, shahar mahallalariga viloyat Ichki ishlar bosh-

qarmasidan mutasaddi xodimlar biriktirilgan bo'lib, ular profilaktika inspektorlariga manzilli profilaktik tadbirlarni tashkil etish, kriminogen vaziyatni barqaror saqlash va jamoat tartibini ta'minlashda amaliy ko'mak berib kelmoqda.

O'rganishlar davomida davlatimiz rahbarining joriy yilda qabul qilingan 1- va 2-sonli qarorlari ijrosini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash masalalari alohida nazoratga olinib, mutasaddilarga tegishli vazifalar yuklandi.

Mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlash – faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki mahalla faollari va keng jamoatchilikning hamjihatlikdagi harakatini talab etadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tizimli ishlar aholi xotirjamligi, jamoat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Hududlarda o'rganish ishlari davom etmoqda.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Jazoni ijro etish tizimida

HAR JIHATDAN PESHQADAM

Bahor nafasi kelayotgan, yangilanish, yasharish fasli yaqinlashib qolgan bir pallada IIV huzuridagi JIEDda Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab «Fidoi ayol xodima», «Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovlari hamda «Zakovat» intellektual o'yini tashkil etildi.

«Fidoi ayol xodima» ko'rik-tanlovi va sport musobaqalarida ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi, o'qotar qurollarni to'liqsiz qismlarga ajratish va yig'ish hamda nishonni mo'ljalga olish kabi jarayonlarda chaqqonligi, test sinovlarida esa nazariy bilimlari sinovdan o'tkazildi.

«Eng yaxshi kitobxon xodima» tanlovida esa qatnashchilar kitobga bo'lgan mehlari, o'qigan asarlari va ulardan olgan saboqlari haqida teran mulohazalar bildirib, yuksak intellektual salohiyatga ega ekanliklarini ko'rsatishdi.

«Zakovat» intellektual o'yinida tizim muassasalari va mintaqalaridan shakllangan jamoalar bilim va fikrlash borasida o'zaro bahs-lashib, haqiqiy intellektual muhit yaratishdi.

Hakamlar hay'atining qaroriga ko'ra, «Fidoi ayol xodima» ko'rik-tanlovida Birinchi mintaqaviy hudud 7-son JIEK Ishlab chiqarish sexi mutaxassisi, **katta serjant Zarina Saydaliyeva** g'oliblikni qo'lga kiritdi. «Eng yaxshi kitobxon xodima» tanlovida 23-son Mahkumlar uchun ixtisoslashtirilgan kasalxona Davolash-profilaktik yordam ko'rsatish bo'limi shifokori, **mayor Nargiza Muhammadiyeva** eng yuqori natijani qayd etib, o'ta bilimdon va nihoyatda ma'rifatli ekanini ko'rsatdi. «Zakovat» intellektual o'yinida esa Birinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazining **«Jasorat» jamoasi** g'alaba qozonib, har jihatdan peshqadam ekanini namoyon etdi.

Sadriddin XAYRULLAYEV,
katta leytenant.



Illat

«QORA BOZOR»GA YETIB BORMADI

Toshkent viloyatida giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi tezkor tadbirlar o'tkazilmoqda. Yuqori Chirchiq tumanida viloyat IIBB tomonidan DXX hududiy boshqarmasi hamda tuman IIB hamkorligida navbatdagi tezkor tadbirida jinoiy guruh faoliyatiga chek qo'yildi.

Tadbir davomida 20–26 yoshli 4 nafar shaxs tumanning «Nurafshon» mahallasidagi vaqtincha ijaraga olingan xonadonda kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini qo'lboila usulda tayyorlash maqsadida narkolaboratoriya tashkil etgani aniqlandi. Ushbu manzildan 3 kg pregabalin, 25 kg



trilon, 20 litrli idishlarda suyuqlik va prekursorlar, bo'sh kapsulalar, 3 ming dona bo'sh flakon topilib, ashyoviy dalil sifatida rasmiylashtirib olindi.

Surishtiruvlarda gumonlanuvchilar laboratoriyani tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalarni internetdagi narkodo'kon kuratorlaridan olib, ularning moliyaviy ko'magida ish yuritgani aniqlandi.

Dastlabki ma'lumotga ko'ra, musodara qilingan moddalarning «qora bozor»dagi qiymati 300 ming AQSH dollarini tashkil etib, 50 mingdan ortiq dozadagi dorilar tarqatilishining oldi olindi.

Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Hozir tergov harakatlari olib borilyapti.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Toshkent viloyati.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

YANGI O'ZBEKISTON
– UCHINCHI
RENESSANS
YO'LIDA

ga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi belgilab berildi. Yangi texnologik bosqichga o'tish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha sanoatni rivojlantirish dasturi boshlanadi. 2026-yilda **52 milliard** dollarlik **782 ta** yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi. Kelgusi yilning o'zida **14 milliard** dollarlik 228 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi.

Prezidentimiz nutqida mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlari ham aniq belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyoti hajmini **240 milliard** AQSH dollaridan oshirish maqsadi qo'yilib, bu yangi rivojlanish bosqichiga o'tish yo'lida muhim strategik qadam sifatida baholandi. Unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonining izchil, amaliy va inson manfaatiga qaratilgan yo'ldan davom etayotganini yaqqol ko'rsatadi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishi va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun mustahkam zamin bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Uchinchi Renessans uzoq istiqbol masalasi emas. U bugun, ushbu onda jamiyatimiz, uning har bir jabhasida muttasil amalga oshirilayotgan real voqelikdir. Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilashlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo'ladi.

G'ayratulla SHUKUROV,
O'zbekiston
Respublikasida xizmat
ko'rsatgan madaniyat
xodimi.



Qoraqalpoq
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.

Shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarida namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslashib «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish» g'oyasini sobitqadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Keyingi 10 yilligimiz asl yuksalish va taraqqiyot davri bo'lishi muqarrar.

IX–XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan Birinchi Sharq Uyg'onish davrida ham, butun dunyoda «Temuriylar davri Renessansi» deya e'tirof etilgan XIV–XVI asrlardagi Ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ham jamiyatda e'tiqod mustahkam, insonlar dunyoqarashida ma'naviyat ustuvor, davlatchilik tuzumida ma'naviyat va ma'rifat yetakchi bo'lgan.

E'tibor bersak, har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lgan. Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olim-u fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, imon-e'tiqodi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Bugun biz ana shunday qutlug' bir davrda, dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminda Uchinchi Renessansga

poydevor qo'yiladigan zamonda yashamoqdamiz.

Sal oldingi tarixga nazar tashlaylik. Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishgan. Jadidlar qatag'on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg'unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilardi. Hech kim o'z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning esa boshiga kulfat yog'ilardi. Ushbu siyosat tufayli ko'plab olimlar, shoir, yozuvchilar «tug'ildi-yu bo'g'ildi».

Shukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga bar-

ham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarida xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko'tarilish, kelajakka ishonch paydo bo'la boshladi. Prezidentimiz rahnamoligida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz».

Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi to'qqiz yilda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Milliy strategiya va Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak, navbatdagi ma'rifat Renessansining markazi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Bugungi yangi O'zbekistonda yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam qilib tarbiyalanmoqda. Ular tarbiyasida hal qiluvchi o'rin tutadigan bog'chalar va maktablar tizimida ulkan o'zgarishlarga guvoh bo'lib turibmiz. Prezidentimiz boshchiligida bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, ha-

yotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sino-lar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta'minlash muhimligiga e'tibor qaratilmoqda.

Yangi Renessansning bosh maqsadi — mamlakatni ravnaq toptirish, yurt farovonligiga erishish. Uchinchi Renessans — bu barcha soha va yo'nalishlarda milliy taraqqiyot yo'lining navbatdagi bosqichidir. Bu konsepsiya o'ziga xos «texnologik sakrash»ni, yuqori darajada rivojlangan «smart» (aqli) iqtisodiyotni nazarda tutadi. Shuningdek, u ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va ijtimoiy sohalarida jahon hamjamiyati bilan yanada faolroq, yanada kengroq integratsiyani taqozo qiladi.

Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. O'z navbatida, raqamli, «smart» iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amal-



В службах и подразделениях

С ВНИМАНИЕМ К КАЖДОМУ

Алмалык – один из крупных промышленных центров республики. Здесь проживает порядка 150 тысяч человек.



– У нас почти всегда многолюдно, но мы стремимся организовать работу так, чтобы не возникало очередей и излишней суеты, – говорит начальник отделения миграции и персонализации ОВД города Алмалыка подполковник Бобур Тураев. – Сбор информации и подготовка документов посетителей осуществляются в короткие сроки. Ежедневно оформляем свыше 100 ID-карт, около 30 загранпаспортов. Среди обращающихся немало иностранцев – граждан Казахстана, Таджикистана, России, Китая, Турции, Индии.

В отделении созданы необходимые условия как для посетителей, так и для персонала. Современное оборудование позволяет работать на основе цифровых технологий. Внедрены системы «Manzil», «E-mehmon», заметно ускоряющие процесс обработки данных.

– В течение минувшего года и за истекший период года нынешнего гражданство Узбекистана получили 76 жителей города: 8 из них приняты в гражданство указом Президента, 68 человек обрели этот статус путем признания, – продолжает наш собеседник. – С помощью мобильного

оборудования с выездом на места 45 гражданам с инвалидностью и лицам преклонного возраста оформлены ID-карты. Вместе с инспекторами профилактики и активистами махаллей следим за соблюдением паспортно-визовой системы. На днях в махаллях имени Чулпана и Саховат прошли разъяснительные беседы: жителям еще раз напомнили о важности соблюдения действующих норм. Особое внимание уделяем социальным сетям: там мы рассказываем о новшествах в законах, касающихся паспортной системы.

Подполковник Бобур Тураев – опытный специалист, за плечами которого двадцать три года службы в ОВД. На высоком уровне выполняют возложенные задачи сотрудники отделения старший инспектор старший сержант Азиз Дехканов, паспортист рядовой Даврон Гафуров и др. Слаженная деятельность личного состава подразделения направлена на результат – сделать так, чтобы каждый посетитель остался доволен.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Ташкентская область.

Территория безопасности

В РЕЖИМЕ ПОСТОЯННОЙ ГОТОВНОСТИ

Надежная охрана объектов государственного значения, имущества юридических и физических лиц – задача, решение которой опирается на профессиональную выучку личного состава и использование технических систем защиты.

Для ознакомления общественности с особенностями несения службы и современным оснащением подразделений, Управлением охраны при МВД Каракалпакстана был организован пресс-тур для представителей СМИ и блогеров.

Специалисты отметили эффективность и надежность Службы охраны, рассказали о принципах работы систем сигнализации: от передачи сигнала на пульт до мгновенного реагирования дежурного наряда.

– На сегодняшний день по всему Каракалпакстану мы обеспечиваем безопасность более 6,2 тысячи объектов и 3,9 тысячи домовладений. Кроме того, системами экстренного вызова – «тревожными кнопками» – оборудованы подъезды более чем 500 многоквартирных домов, – отметил главный специалист информационной группы Службы охраны капитан Алламурат Хожаназаров. – Наши подразделения действуют во всех районах и городах республики. В состоянии



постоянной готовности находятся 29 групп оперативного реагирования, оснащенных современным автотранспортом и спецсредствами. Использование боди-камер позволяет

координировать действия сотрудников.

О работе подразделения свидетельствуют показатели. С начала года на охраняемых объектах пресечены 4 попытки

краж. В ходе совместных мероприятий задержаны 4 лица, находившиеся в розыске. Выявлено 2 факта незаконного оборота наркотиков. Эти данные – лишь отдельные примеры из общей статистики.

Ключевой посыл пресс-тура – призыв к бдительности и активному сотрудничеству. Как подчеркнули организаторы, стабильность и спокойствие в обществе достигаются через взаимное доверие и постоянный диалог между органами правопорядка и гражданами.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика
Каракалпакстан.

Противодействие торговле людьми

БИЛЕТ В ОДИН КОНЕЦ

Успешная операция, проведенная в Сурхандарьинской области, вновь подтвердила: любая попытка нажиться на преступном трафике человеческих судеб неминуемо ведет на скамью подсудимых.

Сотрудники отдела по борьбе с организованной преступностью и отделения по борьбе с торговлей людьми Оперативно-розыскной службы УВД Сурхандарьинской области реализовали комплекс мероприятий на территории Байсунского района. Результатом работы стало разоблачение преступного дуэта, специализировавшегося на «живом товаре».

В ходе доследственной проверки установлено, что организаторами криминальной схемы выступили две женщины, уроженки Сурхандарьи. Действуя из корыстных побуждений, они разработали план по вовлечению соотечественниц в сексуальную эксплуатацию за рубежом.

Злоумышленницы нашли женщину, оказавшуюся в трудной жизненной ситуации. Обещая «золотые горы» и легальное трудоустройство в ОАЭ, они на самом деле готовили ее к отправке в город Шарджа для занятия проституцией.

План продумали до мелочей. Уже был оформлен авиабилет на рейс «Ташкент–Шарджа» стоимостью 700 долларов США. Однако довести умысел до конца им не позволили оперативники. Подозреваемые были задержаны с поличным на стационарном посту ДПС «Дарбанд» в момент, когда пытались переправить потенциальную жертву в сторону столичного аэропорта. Вещественные доказательства, изъятые на месте, легли в основу уголовного дела по ст. 135 УК («Торговля людьми»).

Следственные действия продолжаются. Устанавливается причастность фигуранток к другим аналогичным эпизодам.

Органы внутренних дел еще раз призывают граждан к бдительности: не доверяйте случайным посредникам, сулящим сомнительные перспективы. Ваша безопасность – в ваших руках!

Соб. корр.

Сурхандарьинская область.



Yuksak mukofot sohiblari

Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan 7552-harbiy qismning 1-o'qchi vzvod, 1-o'qchi guruhi qorovul boshlig'i, katta serjant Jamshid Aliyev ana shunday fidoyi, mard Vatan himoyachilaridan. Uning IIV Qorovul qo'shinlari safida xizmat qilayotganiga salkam 25 yil bo'ldi.

Faoliyatining ilk davrida podpolkovnik Yo'lbichboy Haydarov, katta serjant Muhammadjon Qo'chqorov va Yashnarjon Turholovdan harbiy mahoratni, sohaning sir-asrorlarini o'rgandi. Ustozlaridan olgan saboqlar kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Yillar davomida u mas'uliyat va matonat maktabidan o'tdi. Har bir nazariy mashg'ulot, har bir amaliy mashq, har bir sinov uni toblab, tajribasini boyitdi. Bugun lavhamiz qahramoni faqat tajribali harbiygina emas, balki ko'plab yoshlar uchun ustozdir. U o'nlab shogirdlar tayyorladi. Jumladan, kichik serjantlar Maxsutali Qodirov, Islom Hamra-

yev, G'iyos Burxonovga xizmat sir-asrorlarini o'rgatib, ularning jangovar, jismoniy va ma'naviy-ruhiy sifatlarini shakllantirishga munosib hissa qo'shdi.

– Ustozim katta serjant Jamshid Aliyevning ishchanligi, bosiqqligi va har qanday holatda ham oqilona yo'l tutib, to'g'ri qaror qabul qilishiga qoyil qolaman, – deydi kichik serjant G'iyos Burxonov. – U kishi bizga faqat mahorat sirlarinigina emas, balki harbiylarga xos sabr-toqatli, intizomli va mas'uliyatli, irodali bo'lishni ham o'rgatdilar. Har bir mashg'ulotda talabchan, biroq adolatli. Qiyin vaziyatlarda ham vazminlikni saqlash va shoshmashosharlikka yo'l qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaydilar.

Namunali harbiy intizomi va xizmatdagi yu-

VATANNING SODIQ O'G'LONI

Tun sokin. Jangovar postda turgan soqchi uchun esa har bir soniya — mas'uliyat. Uning nigohida hushyorlik, qadamida ishonch, qalbida esa Vatanga sadoqat mujassam. IIV Qorovul qo'shinlari harbiy xizmatchisi faoliyati ana shunday sukunat bag'rida, ammo ulkan mas'uliyat ostida kechadi.



tuqlari uchun Jamshid Aliyev qo'shin qo'mondoni va harbiy qism komandiri tomonidan bir necha bor faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. 2023-yilda «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 23 yilligi» esdalik nishoni,

2026-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan mukofotlandi.

– Kamtarona xizmatimning yuksak baholanishi mas'uliyatimni yanada oshi-

radi, – deydi qahramonimiz. – Bu e'tirof men uchun yuksak ishonch ramzi. Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan ishonchni oqlash uchun bundan keyin ham bor kuch-g'ayratim, bilim va tajribamni Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida safarbar etaman.

Jamshid Aliyev namunali oila boshlig'i sifatida turmush o'rtog'i Nilufar bilan uch nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Qizi Ziyoda Toshkent davlat yuridik universitetining 2-bosqich talabasi. Rivoyatxon oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda. O'g'li Jasurbek esa hozirdanoq otasi kabi Vatan xizmatiga kamarbasta bo'lishni orzu qiladi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Halollikni shior qilgan xodimlar

VIJDON VA BURCH OLDIDAGI MAS'ULIYAT

Korxonalardan birining ishchilari T.Y va K.Z. smenadan qaytayotib, Qo'ng'iro't tumanidagi kafega kirib, turli tansiqt taomlarga buyurtma berishadi. Charchoqni yozish uchun spirtli ichimlik ham buyurtirishadi. Avvaliga yaxshi tilaklar bildirib, qadah ko'tarishadi. Kayflari oshgach, o'zaro tortishib qolishadi.



Tabiiyki bu boshqa xo'randalarga yoqmay, ularga tanbeh berishadi. Bunga javoban ikki ulfat atrofdagilarga qo'pol tarzda gap qaytarishadi. Janjal battar kuchayadi. Kafe egasining ularni tartibga chaqirishi ham befoyda ketadi. Qaytanga uning o'ziga do'q urib, nojo'ya gaplar bilan haqorat qilishadi. Shundan so'ng yemakxona egasi tuman Ichki ishlar bo'limiga xabar berishga majbur bo'ldi.

Chaqiruvga ko'ra, dastlab tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimlari, so'ngra hududiy profilaktika inspektori, katta leytenant Nurlan Torebekov voqea joyiga yetib borib, janjalkashlarni bo'limga olib

kelishadi. Bu yerda huquqbuzarlik tegishli tartibda rasmiylashtirilib, sudga oshirish uchun hujjat to'planadi.

Oradan ikki kun o'tib, mastlik ustida qilgan nomaqbul xatti-harakatlari uchun javob berish vaqti kelganida, ikkovlon boshqacha yo'l tutishga qaror qilishadi. Ya'ni, huquqbuzarlik yuzasidan to'plangan hujjatlarni sudga oshirmaslik, ishni «bosdi-bosdi» qilish evaziga katta leytenant N.Torebekovga pora taklif etishadi. Xodim ularga bu qilmishi qonunga zid ekanligini tushuntiradi.

Ammo bu gaplar T.Y va K.Z.ga ta'sir qilmay, o'z taklifini bir necha bor takrorlashadi. Shundan so'ng katta leytenant N.Torebekov o'z qasamyodiga sodiq qolib, mazkur holat yuzasidan rahbariyatga bildirgi bilan murojaat qiladi.

Ushbu bildirgi asosida o'tkazilgan tezkor tadbir chog'ida ikki ulfat profilaktika inspektoriga pora berayotgan paytda ashyoviy dalil bilan qo'lga olinadi. Holat tegishli tartibda rasmiylashtiriladi. Endilikda ushbu shaxslar yana bir jinoyati uchun qonun oldida javob beradigan bo'ldi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Ma'naviyat

KITOBNING O'RNI BO'LAK

Ichki ishlar organlarida kitobxonlikni ommalashtirish, kutubxonalar tashkil etish ijobiy samara bermiqda. Sirdaryo tumani IIBda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar buning yaqqol isbotidir. Tuman IIBdan tashqari, mahallalardagi huquq-tartibot maskanlarida ham mo'jaz kutubxonalar tashkil etilgan. Ularda milliy adabiyotimiz namoyandalarining asarlari qatori jahon adabiyoti durdonalari ham o'rin olgan. Mazkur ziyo maskanlarining tashkil etilishiga faxriylar, mahallalarda yashovchi ziyoli insonlar o'z hissasini qo'shishgan.

– Hech narsa insonning bilimlarini boyitishda, dunyoqarashini kengaytirishda kitobning o'rnini bosa olmaydi, – deydi Sirdaryo tumani IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Hasan Hazratov. – Shuning uchun xodimlarimizning ma'naviyatini yuksaltirishda aynan kitobxonlikka katta e'tibor qaratyapmiz.

Darhaqiqat, joriy yilning o'zida tuman IIBda besh marta kitob yarmarkasi tashkil etilgan.

– Menga yozuvchi Tohir Malikning «Mehmon tuyg'ular» asari juda yoqdi, – deydi suhbatda «Hikmatli» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Rustam Axmonov. – Asar qanday yashash kerakligini, oilaviy turmush sirlarini, salomatlikni asrash yo'llarini o'rgatadi. Kitobni oila a'zolarim ham o'qib chiqqach, mahallamizdagi kutubxonaga sovg'a qilaman.

Sirdaryo tumani IIB kutubxonasidan nafaqat xodimlar, balki bu yerga tez-tez kelib turadigan litsey o'quvchilari, IIB rahbariyatiga



biriktirilgan yoshlar ham foydalanib turadi. Shu tariqa voyaga yetmaganlar va uyushmagan yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga ma'rifat ulashish orqali ham erishilyapti.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



IIV ta'lim muassasalarida

YAGONA MAQSAD, UMUMIY YUTUQ

Bugungi globalashuv davrida ingliz tili xalqaro muloqot, ta'lim va biznes tili sifatida muhim o'rin tutadi. Shu bois ingliz tili o'qituvchisi nafaqat til o'rgatadi, balki o'quvchilarni yangi imkoniyatlar sari yetaklaydi. Uning mehnati tufayli yoshlar dunyo eshiklarini ochadi, xalqaro maydonda o'z o'rnini topadi va yuksak marallarni zabt etadi.

Ana shunday o'z kasbining ustasi, fidoyi pedagoglardan biri – Dilso'z Abdullayeva. Ko'p yillik tajriba va yuksak malakaga ega bo'lgan ustoz salkam o'n yildan buyon IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'quvchilarga ingliz tilidan saboq berib kelmoqda. U xalq ta'limi a'lochisi, oliy toifali o'qituvchi hamda xalqaro trener sifatida e'tirof etilgan.

Dilso'zning dars jarayoniga yondashuvi zamonaviy va interaktiv usullarga asoslangan. U har bir o'quvchining qobiliyatini ochish, mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Natijada uning ko'plab shogirdlari nufuzli oliygohlar talabasiga aylanib, yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda.

Maktab-internatda bilimli va zakovatli o'quvchilar ko'p. Ular orasida 9-sinf o'quvchisi Hamdam Abduhakimov alohida ajralib turadi. Yosh bo'lishiga qaramay, u o'z intilishi va izlanuvchanligi bilan ustozining ishonchini qozongan.

– Hamdam 7-sinfda o'qib yurganida ilk bor dars berishga kirganman. O'shandayoq uning qiziquvchanligi va puxta savollari e'tiborimni tortgan edi, – deydi



Dilso'z Abdullayeva. – U javobni diqqat bilan tinglaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Ishonasizmi, har gal darsga kirganimda, bugun yana qanday savoli bilan meni hayratga solarkin, deb kutaman. Undan ke-lajakda katta umidlarim bor.

Darhaqiqat, Hamdam Abduhakimov erishgan yutuqlari bilan ustozining ishonchini oqlamoqda. U ingliz tili bo'yicha CEFR tizimi asosida o'tkaziladigan IELTS im-tihonida C1 darajani qo'lga kiritdi. Bu esa tilni yuqori, mustaqil va

erkin darajada egallaganini ang-latadi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, CEFR til bilish darajasini baho-lashning xalqaro tizimi bo'lib, oltita bosqichni o'z ichiga oladi: A1 va A2 – boshlang'ich daraja, B1 va B2 – mustaqil foydalanuv-chi, C1 va C2 – tilni mukammal darajada egallagan foydalanuv-chi. C1 darajasiga erishish o'quvchining murakkab matnlar-ni tushunish, erkin fikr bildirish va akademik muhitda bimalol muloqot qilish salohiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Bunday nati-jalar, avvalo, o'quvchining in-tilishi va mehnati, shu bilan birga ustozning sabr-toqati, tajribasi va fidoyiligi samarasidir. Zero, haqiqiy o'qituvchi faqat bilim bermaydi, u qalblarda ishonch uyg'otadi, maqsad sari intilishni o'rgatadi.

Hamdamning har bir yutuqli qa-dami ustozining mehr va ishonchi bilan bog'langan. C1 darajasida ingliz tilini o'zlashtirish faqat tildagi muvaffaqiyatgina emas, balki us-toz va shogirdning yakdil mehnati, sabr-toqati va ishonchining tabiiy mevasidir.

Jamiyatimizda Dilso'z Abdulla-yeva kabi o'z kasbining fidoyilari bor ekanligi ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarning istiqboli mus-tahkamligini namoyon etadi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Soha fidoyilari

O'ktam Kachalovning tizimdagi faoliyati 2009-yili Denov tumani IIBda eks-pert lavozimidan boshlan-gan. O'tgan yillar davomida u Sho'rchi tumani va Ter-miz shahar IIB ekspert-kri-minalistika bo'linmalarida xizmat qilib, boy tajriba to'pladi.

Qahramonimiz nafaqat amaliyotchi, balki kuchli nazariy bilimga ega mu-taxassis ham. U krimina-listikaning eng murakkab bo'lgan 5 ta yo'nalishi – daktiloskopiya, trasologiya, ballistika, texnik kriminalis-tika va sovuq qurollar eks-pertizasi bo'yicha maxsus sertifikatlariga ega. Bunday keng qamrovli malaka unga eng chigal jinoyatlarni ham «issiq izida» ochish imkoni-ni beradi.

Yaqinda Termiz shahrida ketma-ket sodir etilgan 6 ta jinoyatning fosh qilinishi-da podpolkovnik O'ktam Kachalovning xizmati katta bo'ldi. Oziq-ovqat do'kon-lari va aholi xonadonlari-

Har qanday jinoyatdan iz qoladi, faqat uni ko'ra biladigan ko'z, anglaydigan aql kerak. Surxondaryo viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi biometrik identifikatsiya guruhi bosh eksperti, podpolkovnik O'ktam Kachalov ana shunday o'tkir nigoh sohiblaridan biridir.

dagi o'g'rilik ro'y bergan joylarda u o'ta ziyraklik bilan ishladi.

– Bizning sohada hatto kichik detalga e'tibor ber-maslik – kalavaning uchini yo'qotish bilan barobar. Shu bois voqea joyida har bir mayda narsaga alohida ahamiyat qarataman. Biror iz topib, jinoyatning fosh etilishiga va adolat qaror topishiga hissa qo'shsam, kasbimdan faxrlanib keta-man, – deydi podpolkovnik.

Fevral oyining boshlari. Termizda qish izg'irini che-kinib, bahor nafasi sezila



boshlagan kunlar edi. «Yul-duz» mahallasida «Lacetti» rusumli avtomobildan pul va qimmatbaho buyumlar o'g'irlangani haqida xabar olindi.

Voqea joyiga yetib bor-gan ekspertning sinchkov

nigohi mashina oynasining tashqi tomonidagi namlik-ka tushdi. Darrov vaziyatni tahlil qildi: demak, o'g'ri oynani ochgan va keyin izlarni yo'qotish uchun uni ho'l latta bilan artib tashlagan. Mashinadan bir

necha metr nariga tash-lab ketilgan sochiq bo'la-gi taxminlarni tasdiqladi. U tashqi tomoni artib tash-langanini tushunib, bor e'tiborini oynaning ichki tomoniga qaratdi. Natija-da aynan ichki qismdan olingan aniq qo'l izlari jinoyatning ochilishiga xiz-mat qildi.

Podpolkovnik O'ktam Kachalov kabi o'z kasbiga sodiq, fidoyilik va halollikni hayotiy shior qilib olgan xo-dimlar bor ekan, yurtimizda qonun ustuvorligi va oso-yishtalik hamisha barqaror bo'ladi. Zero, uning o'zi aytganidek: «Marrani aniq olish uchun inson doim to'g'ri va halol yo'lni tan-lashi kerak».

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Mulohaza

Hakimlarimizdan biri «Insonning nafsi shunday bir dengizki, uni na dunyoning boyligi to'ldira olar, na qanoatsizning ko'zi», – deb yozgan edi. Bugun ko'p qavatli uylarda yashab turib, o'z xonadoni ostidagi yerni «xazina qidiruvchilar» kabi qaziyotganlarni ko'rganda, beixtiyor shu fikr yodga tushadi.

Yaqinda Shayxontohur tumani «Qoratosh» mavzesida yuz bergan voqea ijtimoiy tarmoqlarda tarqaldi va jamoatchilikni yana bir bor sergak torttirdi. Birinchi qavatda yashovchi fuqaro yerto'laga o'zboshimchalik bilan yo'l ochib, binoning seysmik barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirgani uchun jarimaga tortildi. Xo'sh, bu jarima sodir etilishi mumkin bo'lgan ulkan fojiani oldini olishga yetarlami?

Shahrimiz ko'chalarini aylansangiz, ayniqsa, ancha yillar oldin qurilgan ko'p qavatli uylarning birinchi qavati tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganiga guvoh bo'lasiz. Har qadamda dorixona, do'kon yoki o'quv markazi. Tadbirkorlik rivojlangani yaxshi, ammo bu binolar aslida turarjoy uchun mo'ljallangan bo'lib, uning birinchi qavatini o'zboshimchalik bilan o'zgartirilgani kishini o'ylantiradi.

Ko'p hollarda tadbirkorlar joyni kengaytirish maqsadida binoning tayanch devorlari (rigel va kolonnalar) ni olib tashlashmoqda yoki «Qoratosh»dagi voqea kabi, yerto'lan ham o'zlashtirmoqda. Binoning yerto'lasini va poydevori – uning tayan-chi, «tananing oyog'i» hisoblanadi. Oyoqqa ortiqcha yuk bossa yoki uning suyagini kessa, tana qancha vaqt tik tura oladi, buni bilmaymiz.

Xalqimiz orasida shunday gap bor: «O'zbekning ishi to'y va qurilish bilan tugamaydi». Qiziqchi Avaz Oxunning uylardagi ta'mirlashlar haqidagi hazili esa bu haqiqatni bor bo'yicha ochib beradi.

«Bizning odamlar ko'p qavatli uylarni hech qachon



YERTO'LANI «ZABT ETGANLAR» BINONI QULATMAYDIMI?



qurilganidek, loyihadagidek qoldirmaydi. Bironta o'zgartirilmagan xonadonni topish amrimahol. Ayniqsa, birinchi qavatda yashaydiganlar uyni shunday kengaytirishadiki, natijada «dom» emas, hovli

paydo bo'ladi. Ular uchun yarim metr joy ham g'animat, harna-da, harna. Oshxona balkonga ko'chadi, bolalar xonasi oshxonaga, yotoqxona esa bolalar xonasiga aylanadi. Koridor bilan zalni bitta qilib, hojatxona bilan vannani «podyezd»ga olib chiqib qo'yadi. «Pod-yezd»dagi «pojarniy xod» bor-ku, ana shu yerga yuvinish xonasini qurib olgan.

Unutmaslik kerakki, ko'p qavatli uyning o'z me'moriy

ye-chimi va u asoslangan qoidalar bor. Binobarin, unga o'zgartish kiritish mumkin emas. Ayniqsa, butun binoning og'irligini tutib turadigan, yuk ko'taruvchi devorni buzish qat'ian taqiqlanadi.

Avaz Oxun kulgi orqali juda katta ijtimoiy muammoni ko'tarib chiqqan. Uyning ichki devorlarini, ayniqsa, beton va armaturali asoslarni o'zboshimchalik bilan buzish, binoning seysmik chidamlili-

gini (zilzilabardoshligini) yo'qqa chiqaradi. Konstruksiyaning muvozanatini buzib, vaqt o'tishi bilan darzlar paydo bo'lishiga olib keladi. Favqulodda holatlar (yong'in va boshqalar) da odamlarning evakuatsiya qilinishiga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi-ni «Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida»gi qonuni va Uy-joy kodeksiga binoan, binoning konstruk-siyalari, poydevorlari va yerto'lalari umumiy mulk hisoblanadi. Ularga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritish yoki tayanch devorlarini buzish qat'ian man etiladi.

Seysmologlar uyning konstruktiv qismini buzish tiklab bo'lmas xato, deya bong urishmoqda. O'zbekiston seysmik faol hududda joylashgan. Har bir kesilgan armatura yoki olib tashlangan ustun minglab insonlar hayotini xavfga qo'yish demakdir.

Birinchi qavatda tadbirkorlik qilish, faqatgina peshtoqqa chiroyli nom yozish degani emas. Bu yuzlab oilalar yashayotgan binoning xavfsizligi uchun mas'uliyatni bo'yiga olishdir. Yuqoridagi holat uchun qo'llanilgan jarima shunchaki ogohlantirish. Agar bunday o'zboshimcha-



liklar to'xtatilmasa, ertaga nafaqat jarima, balki insonlar hayoti bilan tovon to'lanishi mumkin.

Uy – bu yaxlit bir organizm. Uning poydevorini zaiflashtirish o'z hayotiga va qo'shnilarining xavfsizligiga tajovuz qilish. Mutasaddi tashkilotlar nazorati muhim. Ammo eng katta nazoratchi insof va diyonat bo'lishi lozim.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



Law enforcement

LEADING IN EVERY ASPECT

In the Tashkent region, law enforcement agencies continue operational measures to combat the illicit trafficking of narcotic drugs. Specifically, the activities of another criminal group were suppressed in the Yuqori Chirchiq district.

Alongside these efforts, spiritual, educational, and sports events were held for female employees serving within the internal affairs system to mark International Women's Day. Participants demonstrated their physical fitness, professional skills,

and high intellectual potential through the «Devoted female officer» and «Best reader officer» competitions, as well as the «Zakovat» quiz game. At the conclusion of the events, the winners were duly honored by the organizers.



Security

MAHALLAS SURVEYED

In the Jizzakh region, assessments are being conducted to ensure public safety based on the «capital city model».

The criminological situation and the status of crime prevention efforts were analyzed in several neighborhoods of Jizzakh city,

and dialogues were organized with community leaders and law enforcement representatives.

During the events, primary focus was placed on working with conflicted families, early prevention of offenses, and strengthening social prophylaxis. Additionally, specific measures were identified to address local infrastructure issues, such as installing surveillance cameras, street lighting, and ensuring road safety. Officials from the regional Internal affairs administration continue to provide systematic support to prevention inspectors to maintain stable public order.



Destiny

A MASTERPIECE BOUQUET FROM PLAIN PAPER



The willpower and resilience of Durdona Irdonova, a person with a Group 1 disability from the Pakhtachi district of the Samarkand region, serve as an inspiration to many. Despite her physical limitations, the 26-year old has mastered the craft of creating unique flowers and decorations from fabric and paper.

Having refined her skills with the support of her mentor, Nozik Yuldasheva, Durdona now not only earns an income from her products but also strengthens her faith in life. Our protagonist aims to expand her entrepreneurial activities in the future and teach crafts to other young people with physical disabilities. Her work is a brilliant proof that determination can lift a person above any obstacle.

A day in service

«SET YOUR SIGHTS CLEARLY», – SAYS LIEUTENANT COLONEL OKTAM KACHALOV

The long-standing and effective career of Lieutenant colonel Oktam Kachalov, a senior expert at the Forensic center of the Surkhandarya region internal affairs administration, serves as an example for personnel in the field. As a specialist in complex areas such as dactyloscopy, trasology, and ballistics, our protagonist recently contributed directly to solving a series of crimes committed in the city of Termez «on hot pursuit».

Specifically, during a vehicle theft in the «Yulduz» neighborhood, the expert's meticulousness and professional skill led to the discovery of clear evidence among traces deliberately wiped away by the perpetrator. According to Lieutenant colonel Kachalov, solving any complex crime requires not only modern technology but also the alertness and dedication of the officer to their profession.



Education

COMMON GOAL, SHARED VICTORY



At the Specialized boarding school of the Ministry of internal affairs in Tashkent, the successful collaboration between English teacher Dilsoz Abdullaeva and her gifted student Hamdam Abduhakimov has gained special recognition. As an experienced and highly qualified educator, she employs modern and interactive methods to enhance the intellectual potential of her students.

As a result of these efforts, 9th-grade student H. Abduhakimov achieved the high C1 level according to the international CEFR language proficiency standards. This result confirms the student's ability to comprehend complex texts and communicate fluently in academic environments. Such achievements demonstrate the continuity of the «master-student» tradition and the high quality of education within the system.

Qaror va ijro

XAVFSIZ VA RAVON YO'LLAR SARI

Jizzax viloyatida davlatimiz rahbarining 2022-yil 12-iyuldagi «2022–2026 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan «Xavfsiz va ravon yo'l» umummilliy dasturi to'g'risida»gi qarori talablarini bajarish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, avtoyo'llarning texnik holatini yaxshilash, haydovchi va piyodalar uchun qulay hamda xavfsiz yo'llar barpo etish ustuvor vazifaga aylangan.

– O'tgan yil davomida 2180 ta yo'l belgisi o'rnatilib, eski va yaroqsizlari almashtirildi. 20 ta yo'nalishda yangi yo'l ko'rsatkichlari joylashtirilib, 63 kilometr piyodalar va velosipedchilar uchun mo'ljallangan yo'laklar barpo etildi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB axborot guruhi katta inspektori, katta leytenant Abbos Dadashov. – Bundan tashqari, umumiy foydalanishdagi yo'llarda qarama-qarshi harakat yo'nalishlarini ajratish uchun 30 kilometr masofada to'siqlar, 7 kilometrda piyodalar harakatini cheklovchi panjaralar o'rnatildi. Piyodalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini kamaytirish maqsadida 2 ta yerosti o'tish joyi



foydalanishga topshirildi, 23 ta yangi svetofor ishga tushirildi.

Jizzax shahri markazida aholi zichligi va transport oqimi yuqoriligi inobatga olinib, «Ko'kbozor» bozori hamda Islom Karimov ko'chasi, Yoshlar shaharchasi atrofida zamonaviy yerosti tunnelleri qurildi. Bu kabi yangilanishlar fuqarolarga qulaylik yaratish bilan birga, yo'llarda xavfsizlikni ta'minlamoqda.

Tirbandliklarning oldini olish maqsadida «aqlli chorrahalar» sonini

70 taga yetkazish, 5 ta yo'l o'tkazgich va tunnel barpo etish, 30 km piyodalar va 25 km velosiped yo'laklari tashkil etish asosiy vazifa etib belgilangan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yo'l-transport hodisalarining aksariyati haydovchilarning qoidalarga beparvo munosabati sabab yuzaga kelmoqda. Xususan, o'tgan yili viloyatda qayd etilgan YTHlarning 254 tasi yoki 73 foizi aynan inson omili bilan bog'liq. Bunday holatlarning oldini olishda nazorat kameralari

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'tgan yili viloyat va tumanlarga kirish nuqtalari hamda chorrahalar qoidabuzarliklarni aniqlovchi 45 ta kamera o'rnatilib, monitoring markazlariga ulandi. Joriy yilda esa yana 65 ta zamonaviy kamerani joriy etish orqali transport harakatini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

Qaror ijrosini ta'minlash jaryonida profilaktika ishlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida «Diqqat, yo'lovchi!», «Diqqat, bolalar!», «Yashil chiroq», «Yo'l harakati qoidalari bilimdoni», «Eng namunali yo'lovchi» kabi tadbirlar muntazam o'tkazilyapti. Yoshlarda yo'l harakati madaniyatini oshirish maqsadida 104 ta maktabda maxsus o'quv sinfxonalari tashkil etildi.

Viloyatda yo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali yo'llarda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Uchrashuvdan ruhlaniib

«...BO'Z YIGITLARNING NORI BO'LAYLIK»

Inson hayoti uzluksiz izlanish, sinov va tanlovlardan iborat. Kelajak uchun qabul qilingan qarorlar, ayniqsa kasb tanlash masalasi, inson taqdiri va jamiyat oldidagi o'rnini belgilab beradi. Ayrimlar uchun kasb tasodifiy tanlov bo'lsa, ba'zilar uchun u butun hayot mazmuniga, Vatanga xizmat qilishga bag'ishlangan sharaflil va sevimli ishga, burchga aylanadi.

Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori katta leytenant Sardorbek Usarov ham ichki ishlar organlarida xizmat olib borishni qalb amri deb biladi.

Uning xizmat faoliyati yosh xodimlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, qonunga hurmat va kasbiy sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan. Sardorbek Usarov ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini bundan besh yil

oldin jazoni ijro etish tizimida kadrlar bilan ishlash yo'nalishida boshlagan.

Uning tizimdagi faoliyati ildizlari oilaviy an'analarga taqaladi. Otasi marhum podpolkovnik Xolbuta Jabborov uzoq yillar Samarqand viloyati IIB tizimlarida mas'ul rahbarlik lavozimida xizmat qilib, soha rivojiga beqiyos hissa qo'shgan fidoyi rahbarlardan biri edi. Sardorbek bugungi kunda shunday sharaflil yo'lni munosib davom ettirib, otasi kasbiga sodiq farzand sifatida xizmat olib bormoqda.

Joriy yilda IIV Akademiyasida vazir, general-leytenant Aziz Tashpula-



tovning tizimdagi yosh xodimlar bilan uchrashuvda qatnashgan Sardorbek Usarov ruhlaniib, shunday deydi.

– Bu ochiq muloqot yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash, ularning fikr va tashabbuslarini tinglash, shu bilan birga xizmat faoliyatidagi muhim yo'nalishlarni belgilab berishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Uchrashuv ochiq va sami-

miy ruhda o'tdi. Vazir biz kabi yosh xodimlarga katta ishonch bildirib, o'z ustimizda doimiy ishlash, bilim va tajribamizni muntazam oshirish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, katta leytenant S. Usarov Vazir tomonidan yoshlar oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarni kelgusi faoliyati uchun asosiy dasturulamal sifatida

belgilab, o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda yosh xodimlarga «Biz yoshlar Vatanning ori bo'laylik, bo'z yigitlarning nori bo'laylik» deya ma'naviy ruh berib, yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalashga bor bilimni berib, shijoat bilan xizmat qilmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



Kasbiga sodiqlar

«DO'STLIK» POSBONI

Buxoro shahar II OFMB 3-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, leytenant Akbarjon Hotamov o'zining xizmat hududini besh qo'ldek biladi. Har bir xonadonning quvonch-u tashvishi unga yaxshi ma'lum. Chunki faollar va uyboshilar bilan hamjihatlik yaxshi yo'lga qo'yilgan.



– Akbarjon, mahallamizda profilaktika inspektori-jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi vazifasida bir yil ishlagach, 2023-yili profilaktika inspektori etib tayinlandi. Shundan beri birga ishlab kelyapmiz, – deydi «Do'stlik» mahalla fuqarolar yig'ini raisi Begzod Abdullayev. – Hududimizda 30 ta ko'p qavatli uy, 2 ta ijtimoiy yotoqxona va 48 ta tadbirkorlik obyekti joylashgan. Mahallamiz 70 foiz kameralashtirilgan va viloyat IIB Tezkor boshqaruv markaziga integratsiya qilingan. Shuningdek, hududimiz ko'chalarida 80 foiz yoritish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bularning sharofati va profilaktika inspektori-mizning tinib-tinchimasligi bois, o'tgan yili mahallamiz «Sariq» toifadan «Yashil» toifaga o'tib, jinoyatdan xoli hududga aylantirildi.

Leytenant Akbarjon Hotamov har kuni ertalabki yo'riqnomadan so'ng kamida ikki soat mahalla faollari bilan xonadonma-xonadon yurib, xatlov o'tkazadi. Xatlov o'tkazishda yangi kelgan ijarachilarni, jinoyatga moyil shaxslarni o'rganib, ular bilan profilaktik ishlarni olib boradi. Shu bilan bir-

ga, «Mening inspektorim» ilovasiga fuqarolarni qo'l telefoniga ulatish choralari ko'rmoqda.

Bundan tashqari, profilaktika inspektori o'ziga murojaat etgan hech bir insonni noumid qaytarmaslikka harakat qiladi. Chunki ustoz mayor Jahongir Haydarov shunday o'rgatgan. Jabrdiydaga yaqin qarindoshingga munosabatda bo'lganday muomala qil, deb ko'p takrorlardi u. Yana o'zingni tutishing, xulq-atvoring bilan boshqalarga namuna bo'l, shundagina odamlar senga yuragini ochadi, deya tayinlardi.

Yaqinda profilaktika inspektori tashabbusi bilan xolislar ishtirokida sobiq ovchi V.V.ning xonadoni tekshirilganda, temir javoni va yotoqxonasidan 16 dona gilza, 18 ta o'qdori, shuningdek, sof vazni 18 gramm porox moddasini noqonuniy saqlab kelayotganini aniqladi. Hozirda fuqaro V.V.ga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Lavhamiz qahramoni esa Ichki ishlar vaziri o'rinbosari tomonidan qimmatbaho sovg'a bilan mukofotlandi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

Jarayon

OLTIARIQNING – «OG'IR» HUDUDLARIDA

– Oltiariq tumanida «og'ir» toifaga kiritilgan «Sharq», «Bozorboshi», «Ekiarab» va «Qiziltepa» mahallalarida osoyishta va xavfsiz muhitni yaratish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilyapti.

– Yil boshidan mazkur mahallalarga rahbarlardan mas'ullar biriktirilib, amalga oshirilishi zarur deb topilgan vazifalarning yo'l xaritasini ishlab chiqdik, – deydi tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, mayor Mirolim Tojiboyev. – Masalan, eng gavjum va serqatnov «Bozorboshi» mahallasiga bevosita tuman IIB boshlig'i, polkovnik Ilhomjon Sotvoldiyev mas'ul etib biriktirildi. Bo'lim boshlig'ining o'zi har kungi ishini erta tongda shu mahalladan boshlaydigan tizim yaratildi. Aholi muammolari «xonadonbay» o'rganilib, jinoyatchilikka sabab bo'layotgan omillarni yettilik bilan hamkorlikda manzilli ravishda hal etishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Hududda fuqarolar oqimi ko'pligi sababli raqamlashtirish ishlariga jiddiy e'tibor qaratib, gavjum joylarni to'liq kuzatuv kameralari orqali nazorat qilishga erishildi.

Qayd etilishicha, mahallada «ijtimoiy profilaktika» tizimi doirasida 91 ta xulosa berilgan bo'lib, shundan 78 tasi tez fursatdayoq ijobiy hal qilindi. 125 nafar alohida toifadagi shaxslarning ro'yxati shakllantirilib, manzilli tadbirlar olib borilmoqda. 63 nafar chet elga ishlash uchun ketgan shaxslar va ularning oilalariga amaliy yordam ko'rsatildi. «Mahalla



targ'ibotchisi» jamoatchilikguruhlari faoliyati yo'lga qo'yildi. 17 ta obyekt qo'riqlash pul-tiga ulandi, 8 ta yuzdan tanib olish funksiyalariga ega, 2 ta avtoraqam aniqlovchi kameralar o'rnatildi. Natijada jinoyat va huquqbuzarliklar salmog'i sezilarli darajada kamaya boshladi.

Yaqinda tuman hokimligi, ichki ishlar bo'limi va mutasaddi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhi «og'ir» toifadagi 4 ta mahallada kompleks tadbirlar o'tkazib, aholi muammolari va jinoyatchilikka sabab bo'layotgan omillarni manzilli ravishda o'rgandilar. O'rganishlar davomida ijtimoiy profilaktika obyektlariga alohida e'tibor qaratildi, jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning oilaviy muhiti, bandlik masalalari va salomatligi tahlil qilib chiqildi.

Bundan tashqari, hududda joylashgan bozorda ham

aholi bilan uchrashuvlar tashkil etilib, fuqarolarga «Mening inspektorim» dasturining afzalliklari tushuntirildi. Kiberjinoyatlarning turlari, internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik holatlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Shuningdek, 30-maktabda «Biz giyohvandlikka qarshimiz!» shiori ostida profilaktik tadbir o'tkazildi. Tadbirda yoshlarga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning inson salomatligiga salbiy ta'siri, ularning ayanchli oqibatlari hamda qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari haqida batafsil tushuntirishlar berildi. Shuningdek, mavzuga doir videorolik namoyish qilindi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.



Qo'riqlash xizmatida

SHAHARNING SERGAK QO'RIQCHILARI

Jizzax shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati tomonidan obyektlar qo'riqlovini ishonchli ta'minlash, o'g'rilik, mol-mulkka zarar yetkazish kabi holatlarning oldini olish maqsadida bugungi kunda viloyat markazidagi 1298 ta texnik qo'riqdagi obyekt va 1135 ta aholi xonadoni 6 ta tezkor harakatlanuvchi guruh tomonidan kun-u tun nazorat qilinmoqda. Qo'riqlash qurilmalari situatsion markazga integratsiya qilingan bo'lib, malakali xodimlarning muntazam nazoratida. Tashvish xabari kelib tushgandan so'ng voqea joyiga 5–7 daqiqada yetib borishiga erishilmoqda. Natijada sodir etilayotgan jinoyat «issiq izida» fosh etilmoqda yoki oldi olinmoqda. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, joriy yilning o'tgan davrida 25 ta jinoyat va huquqbuzarlikning oldi olinishiga erishildi. Bu aholining, tadbirkorlik subyektlarining moddiy qiymatliklari talon-toraj qilinishdan saqlab qolindi, degani.

Aholining huquqiy ongini oshirish, o'z mol-mulkiga zarar yetishining oldini olish bo'yicha muntazam tushuntirish-

targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadbirlarda savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini kuzatuv kameralari va qo'riqlash-signalizatsiya vositalari bilan jihozlashning ahamiyati, qo'riqlash turlari, qo'llaniladigan qurilmalar bo'yicha ham ma'lumot berilyapti. Savdo obyektlari, korxona va tashkilotlar, aholi ko'p to'planadigan maskanlarga shaxsni va avtoraqamlarni tanuvchi yuqori sifatli videokuzatuv kameralari hamda qo'riqlash signalizatsiya vositalari o'rnatilmoqda.

Joriy yilda qo'shimcha tarzda 700 dan ortiq aholi xonadonlari va 100 dan



ortiq savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini qo'riqlovga olish, shuningdek, 20 dan ortiq ko'p qavatli uylar atrofida «Xavfsiz yo'lak» loyihasini tatbiq etish reja qilingan. Bu vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotir.

Akram ERXONOV,
kapitan.

Jizzax viloyati.

Abu KENJAYEV olgan suratlar.

Dolzarb mavzu

Yoshlik – beqarorlik. O'smirlarning qiziqishini chegaralash qiyin. Biroq ana shu qiziquvchanlik ba'zan katta muammolarga sabab bo'lishi ham bor gap. Balki, oramizda «Bugun elektron sigareta yangilik emas, uning zarari kamroq, axir, tamaki chekadiganlar qancha» deguvchilar ham topiladi. Biroq yoshlar, ayniqsa, maktab o'quvchilarining qiziqish ortidan bu kabi zararli vositalardan foydalanishayotgani tashvishlidir.

Elektron sigaretalarning aynan yoshlar o'rtasida ommalashishiga ushbu vositalarda nikotinli aromatizatorlardan foydalanilgani, qolaversa, uning bejirim va o'ziga jalb etadigan ko'rinishda ishlab chiqarilayotgani eng birinchi sabab bo'lib ko'rinadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, elektron sigaretalar suyuqligi tarkibida nikotin miqdori odatiy sigaretadan 66 martagacha ko'proq ekan. Bundan tashqari, ularda kanserogen, zaharli bo'lgan 80 xil kimyoviy birikma va og'ir metallar mavjud. Yosh organizmga shuncha zaharning kirib borishini o'ylab ko'rishning o'zi qo'rqinchli emasmi?

Qolaversa, mutaxassislar nikotinga qaramlik o'smirlarning miya rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bilim va qobiliyati pasayishi, ruhiy jizzakilik, tajovuzkorlik va bronx-o'pka yallig'lanishiga olib kelishi mumkinligidan

TUTUNDA QOLAYOTGAN YOSHLIK



Shahboz darsga kechikib kelgani yetmagandek, cho'ntagidan elektron sigareta chiqdi. O'qituvchining «Bu kimniki?» degan savoli ortidan 9-«A» sinf o'g'il bolalarining aksariyati bunga aloqador ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu matohni sinfdoshlar o'rtaga pul tashlab, sotib olishgani ekan. Eng yomoni, ota-onalar yig'ilishida sinfdagi 13 nafar o'g'il bolaning aksariyati ushbu elektron sigaretadan bir necha marta foydalanib ulgurgani aytili.

ogohlantiradi. Shuningdek, bunda markaziy asab, oshqozon-ichak tizimlari, buyrak va jigar funksiyasi buzilishi, gipertoniya, insult, infarkt kabi yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi yuqori. Ko'rinib turibdiki, bu zararli odat yoshlarning nafaqat salomatligi, balki hayot tarziga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Muammoning o'ylantiradigan jihati ham shunda aslida.

JSST tomonidan e'lon qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, hozirda 13 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan kamida 37 million bola tamaki chekadi. Ko'plab mamlakat-

larda elektron sigaretadan foydalanish xavotirli darajaga yetgan. Bu raqamlar bizni ham o'ylantirishi kerak. Chunki ba'zan kundalik yumushlar, ish, xizmat deymiz-u, bolalarning bir fursat nazoratsiz qolishi ularning elektron sigareta sotib olishdek «taklif»ni kengashib olishiga yetarli bo'lishini o'ylamaymiz.

Quvonarlisi, so'nggi yillarda yurtimizda kelajak avlod salomatligiga, millat genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bunday illatlarga qarshi kurashish maqsadida bir qator xayrli ishlar amal-

ga oshirilmoqda. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi»ning ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining, muomalasigi doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, joriy yil birinchi mart sanasidan boshlab yurtimizda elektron sigaretalar muomalasi taqiqlanadi. Bu yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini keng yoyishdek ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Shu o'rinda dunyo mamlakatlarida elektron sigaretalar muomalasini huquqiy jihatdan tartibga solishda turlicha yondashilganini ta'kidlash o'rinlidir. Jumladan, bugungi kunda Braziliya, Norvegiya, Singapur, Turkiya, Hindiston, Eron, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston singari 37 ta davlatda ushbu vositalar muomalasi taqiqlangan. Shuningdek, Belgiya, Buyuk Britaniyada bir martalik elektron sigaretalarni sotish man qilingan. Mamlakatimizda ham elektron sigaretalar muomalasining taqiqlanishi aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim qadam bo'ladi, deya ishonch bilan ayta olamiz.

Sirasini aytsak, bugun elektron sigaretalarga «zamonaviy kashandalik» deya ta'rif berilishi bejiz emas. Yurtimizda uning qutqusidan xalos bo'lish uchun davlat siyosati darajasida amaliy ishlar qilinmoqda. Shunday ekan, endilikdagi ham shaxsiy, ham umumiy vazifamiz, kerak bo'lsa sa'y-harakatimiz ogohlikka yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Toki yon-atrofimizdagi insonlar, ayniqsa, yosh avlod «zamonaviy kashandalik» qutqusiga tushmasin.

Gulnoza TOSHEMIR qizi.



Islohotlar samarasi

VAQT QADRLANADIGAN MASKAN

Yangibozor tumani IIB Migratsiya va personallashtirish bo'linmasi yo'lagida navbat kutib turgan odamlar unchalik ko'p emas. Avvallari bu yer nihoyatda gavjum bo'lar, hatto oddiygina hujjat topshirish uchun soatlab kutilardi. Bugun esa tartib bor, hammasi maromida ketmoqda.

– Sir emas, oldin odamlar asabiy kelib, asabiy ketardi. Sohaviy xizmatdan norozi bo'lgan fuqarolar ko'p uchrardi. «Davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyil asosida amalga oshirilgan islohotlar o'zining ijobiy natijasini berdi: hozir ko'pchilik xizmatimizdan minnatdor, – deydi bo'linma boshlig'i, mayor O'tkirbek Qurbonov.

Uning aytishicha, migratsiya va personallashtirish sohasida elektron xizmatlarning joriy etilishi faoliyat samaradorligini keskin oshirgan. Navbatlar qisqargan, byurokratiya deyarli yo'qolgan. So'nggi besh yil ichida xorijga

chiqish pasporti bo'yicha 20 dan ortiq hujjatlar talabi, chet el fuqarolarini vaqtincha ro'yxatga olishdagi 15 dan ortiq talablar bekor qilingan. Boshqa yo'nalishlarda 40 dan ortiq jarayonlar raqamlashtirilgan.

– E'tiborli jihati, bo'linmaning eshigi fuqarolar uchun doim ochiq. Shikoyat deyarli yo'q. «Ko'p yillar huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatida faoliyat ko'rsatib o'rganganlarim shu bo'ldiki: odamlarni eshitmasangiz, tizim ishlamaydi. Migratsiyada ham shu qoida», – deydi mayor O'tkirbek Qurbonov.

...Mana, yana bir fuqaro hujjatini qo'lida olgan xodimning xizmat



xonasidan chiqdi. Uning yumushi oson bitganidan mamnunligi yuz-ko'zidan shundoqqina ko'rinib turibdi. Uni kuzata turib, ichki ishlar organlari migratsiya va personallashtirish xizmati faqat muhr bosiladigan joy emas, aksincha,

odamlar vaqti qadrlanadigan maskan ekanligiga amin bo'ldik.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Karantin xizmati

XAVFSIZ OZIQ-OVQAT – SOG'LOM HAYOT GAROVI

Toshkent viloyati IIBB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi hamda Quyi-chirchiq tumani veterinariya bo'limi xodimlari hamkorligida tumanning «Do'stlik» va «Shodlik» mahalla fuqarolar yig'inlarida emlash ishlari olib borildi. Ta'kidlash joizki, chorva mollari va uy hayvonlarini emlash – muhim jarayon. Sababi, ushbu jonivorlarni o'z vaqtida emlash yuqumli kasalliklarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

– Emlash orqali hayvonlar xavfli kasalliklardan himoyalaniadi, sut va go'sht mahsulotlari xavfsiz bo'ladi. Ayniqsa, quturish, kuydirgi, brusellyoz kabi inson uchun ham xavfli kasalliklarning oldini olishda emlashning o'rni beqiyos. Bu bilan

inson salomatligi ham himoya qilinadi, – deydi viloyat IIBB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi komandiri, mayor Rasuljon Abdullayev.

Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tomonidan dehqon bozorlari, savdo obyektlarida sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari sotilishining oldini olish, go'sht va go'sht mahsulotlarini qat'iy nazorat qilish maqsadida profilaktik tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari ham muntazam olib borilmoqda.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Toshkent viloyati.



Chegara hududlarda

TOG'LI QISHLOQLARDA OSOYISHTALIK BARQAROR

Dengiz sathidan 4 ming metr balandlikdagi Hisor va Zarafshon tog' tizmalari yonbag'rida Kitob hamda Shahrisabz tumanlariga qarashli «Ko'hsor» va «Ko'l» mahalla fuqarolar yig'inlari joylashgan. Qo'shni Tojikiston bilan sarhadlari tutashib ketgan bu mahallalarda 8193 nafar kishi umrguzaronlik qiladi. Qashqadaryo viloyati IIB Shimoliy-sharqiy mintaqaviy hudud muvofiqlashtirish markazi Tezkor-qidiruv xizmati tezkor vakillari mazkur hududlarda osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish maqsadida tun-u kun xizmat olib bormoqda.

Tog'li hududlarda xodimlarning xizmat faoliyati bilan tanishish maqsadida tuman markazidan qariyb 90 kilometr uzoqlikda joylashgan Shahrisabz tumanining Ko'l qishlog'ida bo'ldik.

– Bu yerda aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik orqasidan kun kechiradi. Har bir xonadonda ot boqiladi, to'ylar ko'pkarisiz o'tmaydi, – deydi mintaq katta tezkor vakili, podpolkovnik Uchqun Ahmedov. – Eng ahamiyatlisi, qishloqda spirtli ichimlik sotish u yoqda tursin, iste'mol qilgan odamni uchratmaysiz. Shuning uchun ham, 2025-yilda jinoyat umuman sodir etilmagan.

Hududda bekorchi odamni deyarli uchratmaysiz, hamma nima bilandir mashg'ul. Masalan, kartoshkachilik bo'yicha 193 ta dehqon xo'jaligi tashkil etilgan. Hozirgi kunga qadar ushbu yo'nalishga 256 ta xonadon jalb qilingan.

– Hozir ham yo'llarni qor bosgani bois faqat «Niva» va UAZ avtomashinalari qatnay-

di. Oziq-ovqat mahsulotlari deysizmi, kiyim-kechak va boshqa kundalik ehtiyoj mollari deysizmi, hammasini tuman markazidan olib kelamiz. Toqqa qor tushishi bilan yo'llar

«Ko'l» MFY raisi Ismoil Boboyev. – Ayniqsa, viloyat IIB Shimoliy-sharqiy mintaqaviy hudud muvofiqlashtirish markazi Tezkor-qidiruv xizmati tezkor vakillari – podpolkovniklar Yorqin Aminov va Uchqun Ahmedovdan juda minnatdormiz. Ular hamisha biz bilan birga. Aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borishadi, bilmaganlarimizni o'rgatishadi, yordamlarini aslo ayashmaydi.

Kitob hamda Shahrisabz tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektorlari bilan ham-



yopiladi. Bunday paytlarda osoyishtalik posbonlarining matonatli xizmatiga tasannolar aytamiz. Chunki ular qor bosgan yo'llardan fidoyilik ko'rsatib, xalqimizga zarur narsalarni yetkazib berishga bosh-qosh bo'lishadi, – deydi

korlik yaxshi yo'lga qo'yilgani tog'li qishloqlarda profilaktik tadbirlarni olib borish, aholi osoyishtaligini ta'minlashda qo'l kelayotir.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Ayol va jamiyat

UNING SHIORI – OLG'A INTILISH

Botir (ismi o'zgartirildi) poytaxtimizdagi 205-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi. U oxirgi paytlarda maktabga formasiz keladigan, sababsiz dars qoldiradigan odat chiqardi. Ustozlari ham uning ta'lim-tarbiyasi salbiy tomonga o'zgarib borayotganidan shikoyat qilishdi. Mirzo Ulug'bek tumani IIOFMB HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar profilaktikasini tashkil etish guruhi katta inspektor-psixologi, kapitan Mohinur Madirahimova «mahalla yettiligi» bilan o'quvchining yashash manziliga borib, oilaviy sharoitini o'rgandi.

Botirdagi o'zgarishlar oilasi, yaqinlari ta'sirida emasdi. Bolaning fe'l-atvori uch-to'rtta tanish o'rtoqlari sabab o'zgarayotgani oydinlashdi. Kapitan Mohinur Madirahimova Botirning yaqinlari bilan kelishgan holda uning vaqtini to'g'ri taqsimlab, nazoratga oldi. Bolaning qiziqishlari, kelajakdagi maqsadlari, bu yo'lda nimalar qilishi kerakligi haqida olib borilgan yakka tartibdagi profilaktik ishlar tezda o'z samarasini berdi. Hozirda uning xulq-atvori ijobiy tomonga o'zgardi, maktabga o'z vaqtida keladi, dars jarayonlariga to'liq qatnashib, sinfdoshlari bilan kelishib, a'lo baholar olishga harakat qiladi.

Lavhamiz qahramoni xizmat jarayonida voyaga yetmaganlar bilan bog'liq bu kabi holatlarga tez-tez duch keladi. Shunday kezlarda u muammoga olib boruvchi sabablarni sinchkovlik bilan

o'rganadi. Masalaga ijobiy yechim topishda eng muhim omillarni tahlil qilishdan erinmaydi. Chunki mutaxassis sifatida balog'at davrida yoshlardagi ko'pchilikka tushunarsiz bo'lib ko'ringan o'zgarishlarni nazariy, amaliy jihatdan baholay oladi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi biladi.

– O'z oldiga katta maqsad qo'ygan inson faqat olg'a intilishi, ortga chekinmasligi kerak, – deydi kapitan Mohinur Madirahimova. – Men hozirda Xorazm viloyati Urganch shahar IIOFMB 3-son IIB HPB katta inspektori sifatida xizmat olib borayotgan akam mayor Mansur Madirahimovga havas qilib shu sohani tanlaganman. 2018-yilda IIV Akademiyasini tamomlab, ilk xizmatimni Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani IIOFMB

1-son ichki ishlar bo'linmasida boshlaganman. Faoliyatim mobaynida ta'lim dargohida olgan bilimlarimni sohaviy xizmatlardagi amaliyot bilan uyg'unlashtirishga, zimmadagi vazifalarni astoydil, to'kis bajarishga harakat qilib kelyapman.

Ayni paytdagi qahramonimizning faoliyati yoshlar bilan bog'liq bo'lib, unga poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumani 205-, 221-, 223-umumta'lim maktabining o'quvchi-yoshlari birlashtirilgan. Ushbu maktablarda «Oila-mahalla-maktab» tamo-yili asosida jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori va salbiy yetakchilikka intilayotgan o'quvchilar bilan maktab hamda «mahalla yettiligi» bilan

hamkorlikda ishlab kelmoqda.

Bundan tashqari, dars vaqtida o'quvchilarning nazoratsiz qolishining oldini olish maqsadida ta'lim maskanlari atrofida joylashgan internet klublari (kompyuterxonalar) va boshqa ko'ngilochar joylarda «O'quvchi» tadbirini tashkil etyapti. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi eng tashvishli muammo ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, psixotrop va ularning aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siriga tushib qolish, noqonuniy avtotransport vositalarini boshqarish. Bunday holatlarning oldini olish borasida ham muntazam profilaktik ishlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, bugun-

ning bolasi o'ta qiziquvchan. Bunda ularning vaqtini to'g'ri taqsimlab, kerakli bilimlarni olishida qo'llab-quvvatlash kerak. Shunda ular kelajagi uchun mustahkam poydevor qo'yadi. Yoshi, bilim-tafakkuri zamon bilan baravar ulg'ayadi, yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Bugungi tezkor zamon vaqtning qadriga yetish, jamiyatda o'z o'rnini topaman degan kishidan intellektual salohiyatini tinimsiz oshirib borishni taqozo etadi. Bu aqidani o'zi uchun ham muhim qoidaga aylantirgan kapitan Mohinur Madirahimova bo'sh vaqtlarida kitob mutolaa qiladi. Turk tilini o'rganadi. Sport turlaridan voleybol, shaxmat bilan muntazam shug'ullanadi. Oila oshiyonida turmush o'rtog'i Jahongir Hojinazarov bilan yelkama-yelka turib, farzandlari Amiraxon, Muhammad Botirjon va Amaliyaxonlarning ta'lim-tarbiyasi haqida qayg'uradi.

Aytgancha, kapitan Mohinur Madirahimova yaqinda Toshkent shahar IIBBda o'tkazilgan «Fidoyi ayol xodima» ko'rik-tanlovida faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ushbu quvonarli natija jonkuyar xodimaning chin ma'noda kasbiy bilim va mahoratining, jismoniy imkoniyatlari, ijodkorligining o'ziga xos namoyishi bo'ldi, desak aslo mubolag'a emas.

Gulnoza TURGUNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



Kuzatuv

SAMIMIY TILAKLAR IZHORI

Isroil Yunusov 28 yillik umrini el-yurt tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashga bag'ishladi. Qahramonimiz Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasiga rahbarlik qilgan davrda ushbu sohaviy xizmat faoliyatini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratdi. Xodimlarning malakasini oshirish, xizmat itlarini maxsus yo'naltirishda sifatli tayyorlash hamisha uning diqqat markazida bo'ldi. Natijada bo'linma kinologlari o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlari yordamida ko'plab jinoyatlarni fosh etishga, jamoat xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdilar.

U nafaqat rahbar, balki ustoz sifatida ham ko'plab xodimlarga namuna bo'ldi,

sohaning sir-asrorlarini, o'zining boy tajribasini o'rgatdi. Isroil Yunusovning yo'l-yo'riqlari, maslahatlari va talabchanligi bugungi kunda shogirdlari faoliyatida o'z mevasini bermoqda.

Yaqinda Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Isroil Yunusov izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi. Tantanali marosimda uning ko'p yillik fidoyilarcha xizmati munosib e'tirof etilib, hamkasblari va shogirdlari o'zlarining dil so'zlarini, samimiy tilaklarini izhor etishdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



VATANPARVARLAR BOG'I

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida milliy g'urur, tarixiy xotira va milliy o'zlikni mustahkamlash bugungi murakkab davrda har bir jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biridir. Bobur shahridagi «Vatanparvar bog'i» ana shu muhim maqsadni hayotga tatbiq etayotgan maskanlardan biri hisoblanadi. U nafaqat dam olish joyi, balki ma'naviy-ma'rifiy markaz vazifasini ham bajarmoqda.

Andijon viloyatining ko'rkam hududida 5,5 gektar maydonda barpo qilingan mazkur bog'da sayr yo'laklari, dam olish maydonlari, konsert va tomosha sahnalari, bolalar uchun o'yin hududlari tashkil etilgan. Bunday sharoit yoshlar va oilalar uchun qulay muhit yaratib, dam olish barobarida tarix va milliy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bog'ning asosiy qismida 1941–1945-yillardagi urush davrida qo'llanilgan harbiy texnika namunalari joylashtirilgan. Ular yoshlarda tinchlik qadriini anglash, Vatanni himoya qilish mas'uliyatini his etish tuyg'usini uyg'otadi va tarixni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Bog' markazidagi «Vatanga qasamyod» yodgorligi alohida ma'naviy ahamiyatga ega. U Vatanga sadoqat va fidoyilik ramzi sifatida barpo etilgan bo'lib, atrofida mamlakat tinchligi yo'lida jonini fido qilgan insonlar xotirasiga bag'ishlangan ma'lumotlar joylashtirilgan. Jumladan, ichki ishlar organlarida xizmat qilib, ter-

rorchilik kuchlarga qarshi janglarda halok bo'lgan xodimlarning suratlari va ular haqidagi ma'lumotlar tashrif buyuruvchilarni befarq qoldirmaydi.

– Biz Ikkinchi jahon urushi haqida eshitganmiz, ammo mustaqillikdan keyin ham yurtimizni himoya qilish oson kechmaganini bilmas ekanmiz, – deydi «Andijon suv ta'minoti» AJ xodimi Feruzaxon Xudoyqulova. – Bu yerdagi xotira bitiklari orqali osoyishtaligimiz uchun jon fido qilgan insonlar haqida ko'p ma'lumot oldim. Shu jihati bilan bu maskan barcha uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bog'dagi eksponatlar va monumentlar faqat tarixni eslatish uchun emas, balki yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, millat bilan faxrlanish va Vatan himoyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan «tirik darslik»dir. Bu yerga kelgan yoshlar tarixni faqat o'qibgina qolmay, uni ko'z bilan ko'radi va ruhan his qiladi.

– Bu ulkan texnika vositalarini ko'rib, urushning naqadar dahshatli



ekanini angladim, – deydi Bulqoboshi tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi Sardorbek Xonabdullayev. – Ota-bobolarimiz shu vositalar bilan jang qilganini o'ylab, bugungi tinch hayotimiz qanday qurbonliklar evaziga qo'lga kiritilganini tushundim. Biz ham ularga munosib bo'lishimiz kerak.

Bugun «Vatanparvar bog'i» shahar infratuzilmasini boyitib, aholi

uchun madaniy dam olish maskaniga aylanmoqda. Bu yerda muntazam ravishda yoshlar festivallari, vatanparvarlik kechalari hamda madaniy-tarixiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Ular yoshlar va aholi orasida milliy g'ururni, tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati

Kiberolam xatarlari

«AKAM BO'LASIZ»: ISHONCH ORTIDAGI FIRIB

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotini yengillashtirish bilan birga, ayrim jinoiy guruhlar uchun ham «qulay maydon»ga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ba'zi fuqarolarning ishonuvchanligi va tez boyib ketish istagi kiberfiribgarlik kabi jinoyat turlarining keskin ko'payishiga zamin yaratmoqda.

Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida yashovchi bir guruh firibgarlar tomonidan sodir etilgan holat buning yaqqol misoli bo'ldi. Ular firibgarlik yo'li bilan mo'maygina daromad orttirish niyatida Telegram messengeri orqali boshqa shaxslarning pasport nusxalarini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritadi. Va mazkur pasport nusxalaridan foydalangan holda, ijtimoiy tarmoqda «Akam bo'lasiz» nomli profil ochishadi. Bu profil orqali notanish fuqarolar bilan onlayn muloqotga kirishib, ularga «Cobalt» rusumli avtomashina yutib olganliklarini aytishadi. Faqat mashinani olish uchun chipta sotib olish lozimligini bildirib, ishonchga kirish uchun qo'lga kiritilgan boshqa shaxslarning pasport nusxalarini, fotosuratlarini tashlab berishadi. Bunga ishongan fuqarolar esa firibgarning qarmog'iga osongina ilinadi. Shu tariqa, so'ralgan

pul mablag'ini plastik karta orqali olish holatlari bir necha marotaba takrorlanadi. Natijada 50 nafardan ortiq yurtdoshlarimiz firibgarlarning qurboriga aylanadi.

Mazkur jinoiy holat viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi xodimlari tomonidan aniqlanib, o'z vaqtida fosh etildi.

– Tahlillarga ko'ra, o'tgan yili respublikamizda umumiy jinoyatchilikning qariyb 60 foizini kiberjinoyatlar, kripto-valyutalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etgan. Joriy yil boshidan buyon ham mazkur turdagi jinoyatlar ulushi yuqori bo'lib



qolmoqda. Bu holat, avvalo, fuqarolarning axborot madaniyati va kiberxavfsizlik borasidagi bilimlari yetarli emasligi bilan bog'liq. Aksariyat hollarda odamlar manbasi noma'lum kanallar, jozibali va'da va «oson yutuq»larga ishonib, o'z mablag'laridan ayrilib qolayot-

ganini kuzatish mumkin, – deydi boshqarma xodimi, katta serjant Sardor Majidov.

Viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan profilaktik ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yil boshidan beri viloyatdagi ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda kiberfiribgarlik va internet xavfsizligi mavzusida muntazam targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Shu kungacha 50 mingdan ortiq flyer va targ'ibot materiallari aholi o'rtasida tarqatilgani ham bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning ko'lamini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki har bir fuqaroning ongli munosabatini talab etadi. Manbaning ishonchligini tekshirish, noma'lum kanal va shaxslarga pul o'tkazmaslik, har qanday «sovrin» yoki «yutuq» haqidagi xabarga tanqidiy yondashish – bugungi kunning eng muhim talablaridandir.


Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Farzandimning yutug'i

«QIZIM – KASBIM
DAVOMCHISI»

Hayotda har bir kishi kasb-korini, turmush tarzini, yashashdan maqsad-muddaosini o'zi belgilaydi. Shu yo'lda halol mehnat qilib, farzandlarini to'g'ri so'z, adolatli, el-yurt koriga yaraydigan insonlar qilib tarbiyalaydi. Mahallada, qo'ni-qo'shnilar orasida yaxshi nom qoldiradi. IIV Buxoro Akademik litseyining moliya va xo'jalik ta'minoti bo'yicha direktor o'rinbosari, mayor Anvar Yandashev ham ana shunday fidoyi insonlardan biri.



– Bu kasbni tanlashimda otam Ato Yandashevning xizmatiga bo'lgan qiziqishim muhim o'rin tutadi. U kishi uzoq yillar yo'l harakati xavfsizligi xizmatida samarali ishlagan, ayni paytda pensiyada, qarilik gashtini surib kelmoqda, – deydi Anvar. – Shu bois ham Toshkent avtomobil yo'llar institutida tahsil oldim. Sohada mukammal xizmat olib borish uchun, dastlab, IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kursida o'qib, imtiyozli diplom bilan tugatdim. So'ng viloyat IIB Moliyaviy ta'minot xizmatida hisobchi vazifasidan boshlab, rahbarlik lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdim.

Lavhamiz qahramoni qaysi vazifada xizmat qilmasin o'z oldiga katta maqsadlarni qo'yadigan, yuqori samaradorlikka erishishga intiladigan kadr sifatida barchada ijobiy taassurot qoldiradi.

Mayor Anvar Yandashev turmush o'rtog'i Olima Rustamova

bilan hamjihatlikda Dilnura, Jahongir va Shahzoda ismli farzandlarini tarbiyalab, voyaga yetkazishmoqda. Barchasi zehni o'tkir, bilimdon bo'lib o'sib boryapti. Ayniqsa, to'ng'ichi Dilnura IIV Buxoro akademik litseyining birinchi bosqich o'quvchisi sifatida matematika, ingliz tili, ona tili, tarix va huquq fanlarini puxta o'zlashtirmoqda. Qisqa fursatda, ingliz tili, ona tili va tarix fanlaridan milliy sertifikatlar olishga erishdi.

– Dilnura qizim ham bizning kasbimizni davom ettirmoqchi, – deya qo'shimcha qildi A. Yandashev. – O'qishidan ko'nglim to'q. Sportga ham chiniqishiga alohida e'tibor beryapman. Chunki jismonan sog'lom bo'lish har bir inson uchun, ayniqsa, osoyishtalik posboni bo'lishida juda zarur. Ishonamanki, qizim ham sulolamizga munosib davomchi bo'ladi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

Bilib qo'ygan yaxshi

Bugungi globalashuv davrida millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylangan. Ammo tarix shuni ko'rsatadiki, ayrim g'oya va qarashlar insoniyat rivojiga jiddiy to'siq bo'lib kelgan. Ana shunday xavfli mafkuraviy oqimlardan biri shovinizmdir.

SHOVINIZM – INSONIYAT
XAVFSIZLIGIGA TAHDID

«Shovinizm» atamasi XIX asr boshlarida Fransiyada paydo bo'lgan. Ushbu atama oddiy askar Nikolay Shoven ismi bilan bog'lanadi. Rivoyatlarga ko'ra, u Napoleon Bonopartga ko'r-ko'rona sadoqat ko'rsatgan. Keyinchalik bu atama milliy ustunlikni mutlaqlashtirish, o'z millatini boshqa millatlardan yuqori qo'yish g'oyasini anglatadigan siyosiy tushunchaga aylandi.

XIX–XX asrlarda shovinizm, ayniqsa, Yevropada kuchaydi. Hatto millatchilikning radikal shakli sifatida boshqa xalqlarni kamsitish, ularning huquqlarini cheklash va hatto bosqinchilik siyosatini oqlash vositasiga aylandi. Masalan, Germaniyada XX asr boshlarida shakllangan natsistik mafkura dunyo tarixidagi eng fojiali ikkinchi jahon urushiga olib keldi.

Shovinistik qarashlar turli davrlarda Yaponiya, Italiya, Rossiya va boshqa davlatlarda ham turli shakllarda namoyon bo'lgan. Bu mafkura ayrim hollarda davlat siyosati darajasigacha ham ko'tarilgan.

Shovinizm quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- **milliy yoki etnik ustunlik g'oyasini mutlaqlashtirish;**
- **boshqa millat va elatlarni kamsitish yoki ularga nisbatan nafrat;**
- **tarixni biryozlama talqin qilish;**
- **tajovuzkor tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlash;**
- **jamiyatda millatlararo adovatni kuchaytirish.**

Bu g'oyalar ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqaradi, fuqarolar o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shovinizm xalqaro huquq tamoyillariga mutlaqo ziddir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko'ra, barcha xalqlar teng huquqli va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida irqi, millati, tili yoki dinidan qat'i nazar, barcha insonlar teng huquqli ekani belgilab qo'yilgan. Shovinistik siyosat esa aynan shu tenglik tamoyilini inkor etadi.

Mazkur mafkura millatlar o'rtasida adovat qo'zg'atadi. Millatlararo ziddiyatlar o'z navbatida investitsiya muhitini yomonlashtiradi, tashqi savdo aloqalarini cheklaydi. Natijada urush va sanksiyalar tufayli iqtisodiy barqarorlik izdan chiqadi. Shovinizm jamiyatni «biz» va «ular»ga ajratadi. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishiga to'sqinlik qiladi, ichki mojarolarni kuchaytiradi. Taraqqiyot turli millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikka tayanadi. Yopiq va agressiv mafkura esa intellektual almashinuvni cheklaydi.

Bugungi kunda shovinizm ko'pincha axborot maydonida, ijtimoiy tarmoqlarda va populistik siyosatchilar nutqida namoyon bo'lmoqda. Ayrim hududlarda etnik nizolar, millatchilikka asoslangan siyosiy harakatlar global xavfsizlikka tahdid solmoqda.

Iqlim o'zgarishlari, terrorizm, pandemiyalar kabi global muammolarni faqat hamkorlikda hal etish mumkin. Shovinizm esa davlatlar va xalqlar o'rtasida ishonchni susaytiradi, insoniyat xavfsizligiga tahdid soladi. Tarix shuni ko'rsatadiki, milliy ustunlik g'oyasi asosida qurilgan har qanday siyosat oxir-oqibat mojaro, urush va tanazzulga olib keladi. Barqaror taraqqiyot esa tenglik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga tayanadi. Millatlar o'rtasidagi hamjihatlik XXI asr sivilizatsiyasining eng muhim shartidir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Саломатлик сабоқлари

ҚОН БОСИМИ ПАСТ БЎЛСА...

Қувватсизлик, хотиранинг сустлашиши, тонгги бош оғриғи, қўл-оёқларнинг музлаши, ҳаво етишмаслиги – буларнинг бари қон босими пастлиги белгилари бўлиши мумкин. Бундай пайтда инсон уйкучан бўлиб қолади. Паст қон босимли кишилар кундалик ҳаётда ўзини яхши ҳис қилиши учун қуйидагилар тавсия қилинади:



* Эрталаб ҳеч қачон ўриндан кескин турманг, аввал қўл ва оёқларни ҳаракатга келтириб, бир неча дақиқа ётинг, кейин аста кўтарилинг. Шу тариқа бош айланишининг олдини олиш мумкин.

* Қон босими юқори бўлган инсонлар учун ман этилган аччиқ чой ёки қаҳва (қунига уч финжондан ортиқ бўлмаган миқдорда), сарийғ ва пишлоқ сурилган нон, хамирли ва ёғли таомлар истеъмоли сиз учун хавфли эмас.

* Қунига 4–5 маҳал тамадди қилинг (таомлар витамин ва фойдали моддаларга бой бўлиши лозим). Узоқ вақт овқатланмай, кейин мўл таом истеъмол қилиш ҳам қон босимининг тушишига

олиб келади. Негаки бу ҳолатда бутун қон ошқозонга йўналади, бош мия томирлари эса озукасиз қолади. Бундан ташқари, қон босими паст бўлганлар нонушта қилишни асло унутмаслиги лозим.

* Кун давомида 2 литр атрофида суюқлик ичинг. Бу яримбўш томирларни тўлдириш ва уларнинг деворига босимни ошириш имконини беради.

* Ёнингизда доим қора аччиқ шоколад олиб юринг. Аҳволингиз кутилмаганда ёмонлашса ҳатто бир бўлак ширинлик ҳам сизга ёрдам бериши мумкин.

* Қон босими паст бўлган одамлар тор ва сиқиб турувчи кийимлар киймаслиги лозим. Чунки улар шун-

доқ ҳам қийинчилик билан ишлаётган томирларнинг қисилишига сабаб бўлади. Айниқса, ёқаси тор кўйлақлардан тамоман воз кечган маъқул.

* Контраст (иссиқ-совуқ) душ гипотоникнинг энг яхши дўстидир. Фақат илиқ сув ҳароратидан совуғига ўтиш кескин эмас, оҳиста амалга оширилиши лозим.

Қон босими паст бўлганлар алоҳида дори воситаларидан фойдаланиши шарт эмас. Уларга ҳаракат, фаоллик зарур. Бу мушак ва томирлар тонусини оширади, кишига тетиклик ва янги куч бахш этади. Шунинг учун ҳам сув ҳавзаларида сузиш, теннис, волейбол, бадминтон каби ўйинлар ўйнаш, югуриш, рақс тушиш ёки ҳеч бўлмаса пиёда юриш улар учун жуда фойдали.

Бироқ қон босими пастлиги бош оғриғи, бемажоллик, иш қобилиятининг сусайиши, бош айланиши, кўнгил айниши ва ҳатто ҳушдан кетиш ҳолатлари билан кечадиган бўлса, дарҳол шифокорга мурожаат этиш зарур.

Маҳфуза АШУРОВА,
шифокор-терапевт.

ТАБИИЙ ВА ФОЙДАЛИ



Яшил рангли, юмшоқ ва тез пишадиган, ҳазми энгил жандиқ дуккакли ўсимликлар сирасига киради. Таом тайёрлашдан олдин уни бошқа дуккаклилар сингари сувда ивитиш талаб қилинмайди. Бу маҳсулот улар каби қоринни дам қилмайди, баъзи салатлар таркибида ҳатто хом ҳолда ҳам истеъмол қилиниши мумкин. А, С, РР, В гуруҳи витаминлари, селен, кальций, магний, натрий, фосфор моддаларини ўз ичига олган ушбу ўсимлик жуда фойдали ҳисобланади, шу боис таом тайёрлашда ва халқ табobatiда кенг қўлланилади.

• Жандиқнинг энергетик қиймати жуда паст. Бундан ташқари, организмдан суюқликнинг чиқарилишини рағбатлантиради, шунинг учун парҳез пайтида бу маҳсулотдан самарали фойдаланиш мумкин.

• Ушбу дуккакли ўсимликда калий ва натрий энг мақбул миқдорда бўлиб, таомларга қўшилганда юрак-қон томир тизими фаолиятини яхшилаш, шишлардан халос бўлишга ёрдам беради.

• Унинг таркибида инсулиннинг аналогли ҳисобланган аргинин мавжуд. Шу боис бу маҳсулот қандли диабет билан оғриган беморларга тавсия этилади.

• Жандиқ истеъмоли буйрак ва қовуқдаги яллиғланиш жараёнларини бартараф этишга ҳисса қўшади. Унинг гуллари қайнатмаса эса бу аъзолардаги тошларни туширишга ёрдам беради.

• Бод ва подагра касалликларида ҳам таом ёки салат таркибига жандиқ қўшиб тамадди қилиш мақсадга мувофиқдир.

• Ушбу ўсимлик донларини қайнатиб, сўнгра яхшилаб эзиб истеъмол қилиш нафақат озиш учун парҳез қилишда, балки гастритни даволашда ҳам ижобий самара беради.

Жандиқ таркибида ҳатто гўшт ва баликда бўлганидан кўпроқ оқсил мавжуд. Унинг ёш ва ям-яшил банди ошқозон-ичак трактининг меъёрда ишлаши учун зарур бўлган клетчатка манбаи ҳисобланади. Қандли диабет, камқонлик, ошқозон ва жигар касалликлари аниқланган беморлар ўз рационига жандиқни киритиши тавсия этилади. Уни нафақат егулик таркибига қўшиш, балки қуритилган бандларидан чой дамлаб ичиш ҳам жуда фойдалидир.

Ҳафиза РАҲМОНОВА, шифокор-терапевт.

ОРТИҚЧА ВАЗН – КАСАЛЛИКЛАР ДЕБОЧАСИ

Семириш инсон танасида меъёрдан ортиқ ёғ тўпланиши ва вазн ортиши ҳолати бўлиб, кўпинча нотўғри овқатланиш, камҳаракатлик, ирсий омиллар ва стресс натижасида келиб чиқади. Замонавий турмуш тарзига хос ярим тайёр ёки тез ҳозирланадиган егуликлар, ширинликлар ва газли ичимликларни кўп истеъмол қилиш ҳам бу муаммони янада кучайтиради. Ортиқча вазн соғлиқ учун хавфли бўлиб, юрак-қон томир касалликлари, қандли диабет юзага келишига ҳамда қон босими ошиши ва бўғимларда оғриқ пайдо бўлишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, инсоннинг ўзига бўлган ишончи пасайиши ва руҳий ҳолатининг ёмонлашишига ҳам сабаб бўлади.



Бу муаммонинг олдини олиш учун тўғри ва мувозанатли овқатланиш, таомни шошмасдан тановул қилиш, ўз вақтида ва меъёрида ухлаш, мунтазам жисмоний машқлар билан шуғулланиш зарур. Қунига камида 30 дақиқа юриш, кўпроқ сабзавот ва мевалар ейиш ҳамда ширин ва ёғли таомларни камайтириш тананинг кўркем ва саломат бўлишини таъминлашга хизмат қилувчи муҳим жиҳатлар ҳисобланади.

Маълумки, ёш ўтгани сайин метаболизм секинлашади, мушак массаси улуши камаюди ва натижада ортиқча вазн тўпланиб, озиш тобора қийин кечади. Лекин агар қуйидаги оддий қоидаларга амал қилинса, ҳар қандай ёшда ҳам семиришнинг олдини олиш мумкин.

* Шакар миқдори кўп бўлган ичимлик ва ширинликлар истеъмолини чекланг. Чунки уларда калория бисёр бўлиб, бу вазн ортишига йўл очади. Бундан ташқари, улар қонда қанд миқдори кескин ошиши ва саломатлик ёмонлашишига сабаб бўлиши мумкин.

* Стресс ҳолатида ўзингизни қўлга олишни ўрганинг. Руҳий изтироб пайтида қонга сўриладиган кортизол гормони ҳазм жараёни ва моддалар алмашинувига таъсир кўрсатади. Одам стрессни қанчалик узоқ ҳис этса, маҳсулотлар шунча кўп зарарли шаклда ҳазм бўлади ва метаболизм шунчалик секин ишлайди. Ҳар қандай ҳолатда тинчланишга ҳаракат қилинг. Негаки стресс нафақат вазн ортишига олиб келади, балки саломатликка ҳам салбий таъсир кўрсатади.

* Спорт билан шуғулланишни унутманг. Бунинг учун спортзал ёки бассейнга қатнаш шарт эмас. Соғлиқ учун фойдали машқларни уй шароитида, табиат қўйнида ва ҳатто иш жойида ҳам бажариш мумкин. Шунчаки бунга кунт қилиб, алоҳида вақт ажратиш ва мунтазам амалга ошириш етарли.

* Оқсилли маҳсулотлар ейишга ҳаракат қилинг. Чунки оқсил тўқлик ҳиссини сақлашга ёрдам беради ва шу орқали ортиқча истеъмолга ўрин қолдирмайди.

* Организмни кўпроқ D витамини билан таъминланг. Ушбу ўта фойдали витаминнинг манбаи ёғли балиқ, тухум ва денгиз маҳсулотлари ҳамда қуёш нури бўлиши мумкин. D витамини инсон танаси учун асосий фойдали модда бўлиб, метаболизм тезлиги тўғридан-тўғри унга боғлиқ. Агар у таомномангизда етарли миқдорда бўлмаса, модда алмашинуви ҳам муқаррар секинлашади.

* Мунтазам равишда сут маҳсулотлари истеъмол қилинг. Чунки, кальций етишмовчилиги модда алмашинуви тезлигига салбий таъсир қилади. Ҳар қуни творог, йогурт ейишни, сут ичишни одат қилинг. Айнан сут ёғлари организмга ортиқча калорияларни энергия кўринишида қайта ишлашга ёрдам беради, шунингдек, бошқа маҳсулотлар таркибида келиб тушадиган зарарли ёғлардан ҳимоя қилади.

Унутманг, соғлом ҳаёт тарзи – ортиқча вазнни бартараф этишнинг энг самарали йўлидир.

Бахтиёр ШЕРҚУЛОВ,
Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими
поликлиникаси бошлиғи, подполковник.



Faxriylar — faxrimiz

BU KUNLARGA YETGANLAR BOR,
yetmaganlar bor

Baxtiyar Nizamatdinov Mo'ynoqda tug'ilgan. Ichki ishlar idoralaridagi faoliyatini 1990-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Siyosiy bo'limi guruh instruktori lavozimidan boshlaydi. Keyinroq, Mo'ynoq tumani IIB boshlig'ining shaxsiy tarkib bo'yicha o'rinbosari, oradan 4 yil o'tib yana vazirlikka qaytib, turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. Xizmatdan ajralmagan holda IIV Akademiyasini tugatadi. So'ng xizmatini tezkor sohada davom ettiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tashkiliy boshqarmasi Murojaatlar bilan ishlash bo'linmasi boshlig'i lavozimidan podpolkovnik unvonida izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi.

– Qoraqalpog'istonda elga taniqli, hurmat e'tiborli insonlarga «Bu kishi belgili odam» deya ta'rif berishadi. Men Baxtiyar Nizamatdinovni ham belgili, ham bilgili, ya'ni bilimli odam, degim keladi. Negaki, ustozim qo'shaloq oliy o'quv yurtini tugatgan. Ichki ishlar idoralaridagi 31 yillik faoliyati davomida el-yurt osoyishtaligini ta'minlashda munosib hissa qo'shgan, ko'plab shogirdlar tarbiyalab yetishtirgan, – deydi shogirdlaridan biri polkovnik Polat Eshchanov.

Darhaqiqat, o'tgan yillar zamirida tezkor xodim sifatida qahramoni-

mizning jinoyatni fosh etish yo'lidagi uyqusiz tunlari, beorom kunlari, kadrlar xizmati xodimi sifatida har qaysi soha uchun mutaxassis topish, tanlash, joy-joyiga qo'yish bo'yicha izlanishi, huquqshunos-yurist sifatida har bir holatning qonunlarga mos kelishini, hujjatlarning biri-boshqasini rad etmasligini o'rganib chiqishi, xullas, mashaqqatli mehnati yotibdi. Albatta, shu tariqa uning fidoyiligi va kasbiga sadoqati, sabr-toqati va o'z vazifasiga mas'uliyati sinovdan



o'tdi. Ha, iste'fodagi podpolkovnik B. Nizamatdinovning hayoti barcha yoshlarga ibrat maktabi bo'la oladi.

«Otam Naurizbay Nizamatdinov juda o'qimishli, ham dunyoviy, ham diniy bilimli odam edi. Yoshligida ovulimizdagi maktabda o'qituvchilik qilgan. So'ng Amudaryo jamoa xo'jaligida rahbar, «Madeli» OFYda rais bo'lib, bir umr el xizmatida yurdi. Pensiyaga chiqqanidan so'ng Mo'y-

noq tumani «To'qmoq ota» masjidida imomlik qildi. U onam Karbiy Yerpolatova bilan olti o'g'il, bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Onam juda mehribon ayol edi. Odam 60 yoshga kirsam ham ba'zan ota-onasini yosh boladek sog'inib, qo'msar ekan. Ularni ba'zan tushlarimda ko'raman, xolos», – deya xo'rsinib qo'yadi Baxtiyar Nizamatdinov.

Bugun o'zi ham turmush o'rtog'i Dilbar opa bilan 5 farzand – to'rt qiz va bir o'g'ilni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. O'qitib elga qo'shishdi. Katta qizi Zeboxon ota kasbini tanlagan. Zerkhan bilan Demaxan esa bobosi kabi o'qituvchi, Bibixan shifokor, kenjatoyi Roman Andijon davlat tibbiyot instituti 2-bosqich talabasi.

Yaqinda Baxtiyar aka 60 yoshga to'ldi. Tavallud kuni uning xonadoni do'st-u yorlar, shogird-u ustozlar, qarindosh-urug'lar, farzand-u nevaralar bilan gavjum bo'ldi. Umrning bunday damini hech ikkilanmasdan baxt manzili, deb atasa bo'ladi. Uning ko'ngli osmon qadar yuksaldi. Odamdan nima qolardi, yaxshi nom va undan nishon – farzandlar qoladida. Baxtiyar aka esa mana shunday nom va nishonga erishgan insonlardan. Negaki, bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor...

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Tarixiy inshootlar

ISKANDAR
KO'PRIGINI KIM QURGAN?

Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida Iskandar nomli qadimiy ko'priki bor. Bandixonsoy ustiga XVI asrda qurilgan bo'lsa-da, mahalliy aholi ko'prikn miloddan avvalgi IV asrda yashagan Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'laydi. Xo'sh, Makedonskiy shaxsi va Iskandar ko'prigi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Tarixiy manbalarda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy saltanati sardadlarini kengaytirish maqsadida Osiyoga yurish qilgani va bu jang-u jadal vaqtida ularning qadami hozirgi Surxondaryo hududlarigacha

yetgani aytiladi. Biroq Iskandar ko'prigini Makedonskiy qurdirgan, degan qarash haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Olimlarning o'rganishlari shuni ko'rsatadiki, ko'prikn «Iskandar» deb nomlanishi uning qurilish davriga emas, balki Shayboniylar sulolasidan bo'lgan Abdullaxonning otasi – Iskandar sulton nomiga bog'liq.

XVI asrda hukmronlik qilgan Abdullaxon tomonidan barpo etilgan ushbu ko'priki xalq orasida otasining ismi bilan atalgan va vaqt o'tishi bilan Aleksandr Makedonskiy bilan adashtirila boshlangan.

Ko'prikn tarixi haqida ma'lumotlar Termiz arxeologiya muzeyida saqlanadi. Ana shu ma'lumotlarga ko'ra, ko'priki XVI asrda

qurilgan va qurilishda g'isht, ohak, ganch, alebastr va yog'och materiallar ishlatilgan. Uning umumiy uzunligi 70 metrni, o'tish qismining eni 5,75 metrni, balandligi esa 12,1 metrni tashkil etadi. Usti 3 qism (yo'lovchi, transport va suv o'tishi uchun)dan iborat. Murakkab me'morchilik yechimlari va mahalliy ustalar mahoratini


namoyon etgan qadimiy inshootning sharq va g'arb tomonidagi tirgaklari vaqt o'tishi bilan buzilgan.

Iskandar ko'prigi yonida u haqdagi ma'lumotlar bitilgan marmar toshda shunday ma'lumotlar keltirilgan: «Bu ko'priki ulkan tariximizdan bir nishonadir. U XVI asrda Abdullaxon tomonidan bunyod etilgan. Hindiston bilan savdo-sotiq aloqalarini bog'lashda Buyuk ipak yo'lidagi bu ko'priki juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uni Aleksandr Makedonskiy nomi bilan atasalar ham, ko'priknung unga hech qanday aloqasi yo'q».

Xullas, 500 yildan ortiq o'tmishi bor Iskandar ko'prigi bu faqat tarixiy inshoot emas, balki ilm, me'morchilik va madaniy merosning yorqin namunasidir.

Feruza RAHMONQULOVA
tayyorladi.

Surxondaryo viloyati.



YUMOR ORQALI IMIJGA YO'L

«Taksi», «Politsiya akademiyasi», «Beverli-Xill politsiyachisi», «Yalang'och qurol», «Tungi kursantlar»... Bu kabi o'nlab filmlar turli davlatlarda politsiyaning kundalik ishini kulgili tarzda tasvirlaydi. Politsiya xodimi ko'pincha no'noq, uquvsiz bo'lib chiqadi. Tajribasiz yosh xodimlarning xizmat faoliyatidagi turli voqealar yumor orqali ko'rsatiladi. Xo'sh, fuqarolarning ishonchli himoyachisi hisoblangan politsiya haqida bunday rakurs nega kerak? Axir, tartib va osoyishtalik posbonlari o'z ishini yaxshi biladigan, mard, sovuqqon, jiddiy odamlar-ku.

Ideal bo'lmagan obraz – ishonchli obraz

Aslida, politsiya haqida film olish oson emas. Unda ko'plab lokatsiyalar, maxsus texnika vositalari, quvlar sahnlari, kaskadyorlar va vizual effektlar kerak bo'ladi. Yumor qo'shiladigan bo'lsa, bu vazifa yanada mushkulashadi. Chunki film ham yuqori dinamikali, ham kulgili, ham ijobiy yechimli bo'lishi zarur. Politsiya obrazining komik kino orqali shakllanishi esa psixologiya, PR, propaganda va ommaviy madaniyat kesishgan nuqta hisoblanadi. Bu mavzudagi qator Gollivud filmlarida qahramonlar ko'pincha uch xil obrazda namoyon bo'ladi:

1. Qahramon himoyachi. Jino-yatchilar kuchli, xavf katta, lekin politsiya baribir g'alaba qiladi. Bu jamiyatga «nazorat ishonchli qo'llarda» degan psixologik signal beradi.

2. Sherik va do'st. Fe'l-atvori mutlaqo turlicha ikki politsiyachi birga ishlaydi. Biri jiddiy bo'lsa, biri hazilkash («Javohir politsiyachi»). Bunday qahramonlar tandemi filmning ham dinamik, ham insoniy chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Muammoli qahramon. Zamonaviy film, seriallarda politsiya doim ham ideal ko'rsatilmaydi («Shef», «Karpov»). Ular korruptsiya, ichki bosim, axloqiy tanlov oldida ojiz qoladi. Bu realizmni oshiradi va tomoshabin-

da yo'ldan adashgan xodimning jazolanishi orqali tizimga ishonchi oshadi. Umuman, ideal bo'lmagan obraz – ishonchli obraz, de-

real tajriba bilan ekran tajribasini har doim ham ajratavermaydi. Psixologiyada bu «cultivation effect» deb ataladi. Odam ekranda nimani ko'p ko'rsa, dunyo ham shunday deb o'ylay boshlaydi. Masalan, agar politsiyachi doim qahramon bo'lsa, ishonch ortadi. Qahramonlik haddan oshsa, ishonch susayadi. Zo'ravon bo'lsa, shubha kuchayadi. «Oltin o'rta-lik»ni saqlash, kulgi orqali ishonch uyg'otish esa eng samarali yo'l. Sababi oddiy: qo'rqqan odam ishonmaydi, kulgan odam yaqin-

shib qoladi. Biroq eng muhim nuqta – u yomon xodim emas. Intiladi, harakat qiladi va oxirida natijaga erishadi. O'y-xayoli shu qadar jino-yatchilar bilan band bo'lganidan hatto xotining 8 oylik homilasi borligini ham sezmaydi. Boshliq Juber esa komik obrazning klassik namunasi: uning har bir buyrug'i va film yakunidagi holati jasur bo'lishdan va xodimlariga namuna bo'lishdan charchamaydigan rahbar qiyofasini mustahkamlab boradi. Natijada film yakunida politsiya ideal bo'lmasa-da, jino-



yatga qarshi kurashda davom etayotgani ko'rinadi. Bu – imijni mustahkamlashning juda nozik usuli.

Nega politsiya haqida komik filmlar suratga olinadi?

Xo'sh, kulgi qanday ishlaydi? Dastlabki psixologik effekt shuki, yumor hissi psixologik masofani qisqartiradi. Odamlar odatda politsiyadan cho'chishi mumkin. Komediya esa bu «rasmiy devor»ni buzadi. Tartib posboni formali shaxsgina emas, avvalo inson ekani ko'rinadi. Umuman, biz kuldigan odamni avtomatik ravishda yoqtiramiz. Agar tomoshabin politsiya qahramonini yoqtirsa – u butun tizimga nisbatan iliqroq munosabatda bo'ladi, simpatiya uyg'onadi. Bu janrdagi muvaffaqiyatli filmlarda muvozanat bo'ladi – kulgi bor, lekin xavf va javobgarlik ham his etiladi.

Bu janrdagi filmlar faqat yumor uchun emas. Ular qo'rquvni kamaytiradi, politsiyaning «insoniy-lashtiradi», ishonchni oshiradi va jamiyat va huquq-tartibot idoralari o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Shu sababli jahon kinematografiyasida bunday filmlar doim talabda.

O'z muxbirimiz Muqaddas SAPAROVA tayyorladi.



gan qoida bor. Salbiy qahramon ko'proq yodda qoladi. Qiziq paradoks shundaki, ko'pincha ishonchni oshiradigan formulada «kamchilik» bo'lishi shart. Shuning uchun hozirgi kino politsiyaning o'tgan asrdagidek superqahramon emas, balki kurashayotgan inson sifatida ko'rsatishga o'tgan.

Kino – ijtimoiy fikr muhandisligi ham

San'atshunoslar fikricha, inson miyasi

lashadi. Komediya politsiya va jamiyat o'rtasidagi psixologik devorni buzadi. Bu – PR nuqtayi nazaridan eng arzon va samarali strategiyalardan biridir.

Komediya filmlari politsiya haqidagi tasavvurni ikki yo'l bilan shakllantiradi: qahramon qilib – ishonch tuyg'usini mustahkamlaydi va kuldurib – yaqinlashtiradi. Shuning uchun davlatlar ham, studiyalar ham bu mavzudan voz kechmaydi.

Marsel politsiyasi «Taksi»da

Fransiya bu mavzuda mashhur namunalarga ega. Misol uchun, «Taksi» filmi. Unda politsiya xodimi Emilen «superqahramon» emas. Ba'zan chalkashadi, tajribasi yetarli emas, kulgili vaziyatlarga tu-

МАКС ПЕНСОН СУРАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ

**Ўзбек фотографиясининг ёрқин вакили фотомухбир
Макс Пенсон 1893 йилда Россиянинг Смоленск
вилоятида яҳудий муқовачилар оиласида туғилган.
1914 йилда рус подшоҳининг фармони билан Пенсон ва
унинг оиласи Қўқонга депортация қилинади.**

1917 йил Пенсон Қўқон инқилобий қўмитаси ҳузурида бадий мактаб ташкил этади. У ушбу мактабнинг ўқув-ишлаб чиқариш устaxonалари мудирини бўлиб, ўзбек болаларига расм чизишдан дарс берган. 1921 йилда фотоаппарат сотиб олганидан сўнг унинг ҳаётида кескин ўзгаришлар рўй беради. Кейинчалик Пенсон Тошкентга кўчиб ўтади

га. Ушбу канал агра минтақада Ўзбекистон, Қирғизистон ва Тожикистон ҳудудлари бўйлаб 350 километр узунликдаги асосий сув таъминоти муаммосини ҳал этиш учун мўлжалланган эди. Пенсоннинг суратларида минглаб кетмонлар билан «одам яратган дарё» акс эттирилган.

Пенсон бир неча бор суратга олган раққоса Тамарахоним бу



лереяларида намоиш этилди ва мамлакатимиз ҳаётини акс эттирувчи жаҳон фотография тарихининг муҳим қисмига айланди.

Россия, Франция, Швейцария, Бельгия, Люксембург, Германия, Украина, Хитой, Япония, Мўғлистонда Макс Пенсон фотоасарлари «Ўзбек фотографиясининг 125 йиллиги» номи кўчма кўргазмаси доирасида намоиш этилган бўлса, 2011 йилда Нью-Йоркда фото устасининг шахсий кўргазмаси бўлиб ўтди. Унинг асарлари ҳақида дунё ахборот воситаларида кўплаб мақолалар чоп этилди.

Пенсон Ўзбекистоннинг ўзига хос тарихини яратган таниқли фотографдир. У ўз касбига фидойи инсон эди. Суратга олиш унинг учун, энг аввало, завқ берувчи ижодий жараён эди. Гарчи бу расмлар газета ва журналларнинг топшириғи билан олинган бўлса ҳам, ҳар бир суратни у тасвирий асар даражасида яратарди.

Унинг фотосуратлари ўтган асрнинг 1920–1930 йиллари-



ва 1926–1949 йиллар мобайнида минтақанинг асосий босма нашри бўлган «Правда Востока» газетасида фотомухбир вазифасида ишлади. 1920–1940 йилларда у нафақат Ўзбекистонда, балки бутун собиқ иттифоқда машҳур фотограф сифатида эътироф этилади.

У ўз фотосуратларида халқимизнинг турмуш тарзи ва мамлакатнинг хўжалик ҳаётини акс эттирган. Ижодининг асосий мавзулари: ўзбекларнинг анъанавий ҳаёти, портретлар, спорт мавзуси, аёллар фотосуратлари эди.

Унинг ижодида мамлакатнинг улкан гидротехника лойиҳаларидан бири бўлган Катта Фарғона каналининг қурилиши марказий ўринни эгаллайди. Ушбу ирри-

даврнинг тимсолига айланди. У паранжисиз саҳнага чиққан илк санъаткорлардан бири эди. Макс Пенсон ижодидаги энг машҳур фотосурат – «Ўзбек Мадоннаси» 1937 йилда Парижда бўлиб ўтган Бутунжаҳон кўргазмасида олтин медалга сазовор бўлган.

Солномачининг ҳаёти фожиали тугади. 1948 йилда Макс Пенсон «Правда Востока» таҳририятдан бўшатилади. У аккредитациядан ва севимли ишини бажариш ҳуқуқидан маҳрум бўлиб, кўп йиллик тушкунликка тушиб қолди. 1959 йилда ҳаётдан кўз юмган фотографнинг ўн минглаб негативлардан ташкил топган катта архиви кўп йиллар давомида унутилди.

Макс Пенсон архивининг бир қисми унинг оиласи томонидан



сақлаб қолинган. 1990-йилларда унинг қизи Динанинг саъй-ҳаракатлари туфайли фотограф мероси дунёга қайта тақдим қилинди. Унинг асарлари халқаро миқёсда эътироф этилиб, Нью-Йорк, Лондон, Москва га-

да Ўзбекистон тарихи ҳақида сўзловчи ҳужжатли манбалар сифатида кўплаб илмий ишлар ва тарих дарсликларидан жой олган.

Гайратулла ШУКУРОВ.



Bir tuman tarixi

SOBIRSOY, SOVETOBOD, NUROBOD

Nurobod tumani 1975-yil 26-noyabrda tashkil topgan bo'lib, umumiy maydoni 4,86 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Hudud asosan yassi tog'lar, qir-adirlar, soy va tekisliklardan iborat bo'lib, tuman sharqdan g'arbga cho'zilgan.

Tumanning sharqiy qismidan Eski anhor kanali oqib o'tadi, shimoli-sharqiy qismida esa Kattaqo'rg'on suv ombori joylashgan.

Mazkur suv ombori bo'yidagi «Saroyqo'rg'on» o'rmon xo'jaligi hududida pistazor va bodomzorlar barpo etilgan. Shuningdek, tuman markaziga yaqin hududda Sobirsoy suv ombori bunyod etilib, u tumanning sug'orish tizimida muhim o'rin tutmoqda.

1958–1962-yillarda sanoat maydonchasi qurilishi va konni o'rganish jarayonida qishloq xalq orasida Sosgrad deb nomlangan. 1962-yilda yopiq tipdagi geologiya-qidiruv posyolkasi «Yujniy» deb nomlandi, keyinroq aholi punktiga kon nomini «Sobirsoy» deb berish masalasi ko'rib chiqildi, biroq O'ZSSR KPSS Komiteti uning nomini Sovetobod nomi bilan tasdiqladi.

Sovetobod tarixi 1964-yilga borib taqaladi, dastlab Sobirsoy uran rudasi koni hududida geologik qidiruv ekspeditsiyasi (partiya) mutaxassislarining kichik qishlog'i shaklida bo'lib, uni qidirish va qazib olish uchun Janubiy kon, keyinchalik NKMK ma'muriyati tuziladi, keyin esa shahar quriladi.

1983-yilgacha shahar tipidagi Sovetobod posyolkasi, 1975-yildan Samarqand viloyatidagi shu nomdagi eng yirik tuman markazi bo'lib kelgan. 1983-yildan Samarqand viloyati Sovetobod tumani Nurobod shahri, 1992-yildan esa Nurobod deb atala boshlandi.

Sovetobod 1983-yilgacha metalni qazib olish bilan shug'ullanuvchi yopiq maxfiy strategik obyekt maqomiga ega edi. Uran rudasini yer osti qazib olish va keyinchalik yer osti yuvish yo'li bilan qazib olish hajmining tez o'sishi tufayli shahar faol rivojlana boshladi. Yarim asrlik tarix mobaynida Nurobod mehnatsevar, bunyodkor va mehr-oqibatli insonlar yashaydigan, taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotgan tumanga aylandi.

Tuman Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari, shuningdek Paxtachi, Narpay, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om hamda Samarqand tumanlari bilan chegaradosh.

Bugungi kunda Nurobod tumanida 39 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Nurobod tumani iqtisodiyoti asosan dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlariga ixtisoslashgan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va sanoatni rivojlan-

tirish loyihalari natijasida tumanda sanoat ulushi ham sezilarli darajada o'smoqda.

Bugun Nurobod tumani qadimiy ziyoratgohlar, shifobaxsh sihatgohlar, so'lim bog'lar, ta'lim va madaniyat markazlari, qorako'chilik, dehqonchilik va fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ushbu infratuzilmalar tumanning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutib, aholining turmush farovonligining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Tim qishlog'i 10 asrlik tarixga ega bo'lib, u yerda Arablar istilo qilgan paytda barpo etilgan «Arab-Ota» maqbarasi mavjud bo'lib, u X asrda barpo etilgan. Bundan tashqari qishloqda ming yillik archa bor, u qishloqning 10 asrlik tarixini o'zida mujassam etadi. Tim qishlog'ining yarmi tog' bilan o'ralgan bo'lib, ayniqsa bahor oyida juda ham chiroyli manzara kasb etadi. Qishloqning o'rtasidan «Tim» soyi kesib o'tgan. Bu soyga suv Piyozli, Miskon va Yaltir tog'laridan oqib keladi.

Tadqiqotlar Nurobod tumani hududi insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy yashash maskan-



laridan biri ekanini ilmiy dalillar asosida tasdiqlaydi. Xususan, bu hududda ibtidoiy san'at va madaniyatning dastlabki o'choqlari shakllangani, qadimgi aholi turmush tarzi va xo'jalik faoliyati yuksak darajada rivojlangani manbalarda keltirilgan.

Nurobod tumani tashkil etilganiga 50 yildan oshdi. Bu yo'l tarix, mehnat va yangilanish davridir. Bugun Nurobod yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yar ekan, bu yurt ahlining ezgu orzu-intilishlari, mehnatsevarligi va birligi tuman ravnaqi va kelajagi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Umida MAMADALIYEVA
tayyorladi.

Samarqand viloyati.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(2 – 8 март)

Кўй (21.03 – 20.04). Келаётган ҳафтада



сизга қувончли кунлар ҳамроҳ бўлади. Ишларингиз юришиб, муаммоларга ечим топилади. Пайшанба куни оилангиз учун кутилмаган совға қиласиз. Дам олиш кунлари уйингизга келган меҳмонлардан кайфиятингиз янада кўтарилади.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Бу даврда сизни



янги ва омадли танишувлар кутмоқда. Хизмат жойида эса белгиланган вазибаларни ўз ўрнида ва вақтида бажариш тавсия этилади. Оилада маиший масалалар билан боғлиқ келишмовчиликлар юзага келиши мумкин. Ўз ташаббусингиз билан уларни оқилона бартараф этишга ҳаракат қилинг.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Ишлардан



бироз чалғиб, эътиборни шахсий муаммоларга қаратиш имкони туғилади. Оиладаги тушунмовчиликлар ҳал бўлади. Келадиган ҳафтада катта режалар ҳақида бош қотирмаганингиз маъқул.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Келаётган



ҳафтани ишдаги катта муваффақиятлар билан хушқайфиятда бошлайсиз. Чоршанба куни ўйлаган ҳар бир ишингиз амалга ошади. Жума харид учун омадли кун ҳисобланади. Якшанба куни кўрган тушингиз ўнгидан келади.

Арслон (23.07 – 23.08). Ақлга келади-



ган енгил-елпи, ҳавойи ғояларни ҳайданг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида ҳамма ишлар изига тушиб кетади. Ишхонадаги ҳамкасблар билан иложи борица яхши муомалада бўлишга ҳаракат қилинг. Ҳафта охирида пулни тежаброқ ишлатинг.

Паризод (24.08 – 23.09). Бу ҳафта ваъда



бердингизми, албатта устидан чиқинг. Кўзингизга жуда майда кўринган ишларни ҳам бажонидил, ўзгача ҳавас билан адо этинг. Молиявий масалада ҳар бир ҳаракатингизни яхшилаб таҳлил қилинг.

Тарози (24.09 – 23.10). Душанба куни



режаларингиз рўёби учун катта ҳаражат қиласиз. Бироқ унинг натижасини ҳафта ўртасига бориб кўрасиз ва мўмай даромад соҳибига айланасиз. Шанба ва якшанба оила аъзоларингиз билан мароқли ҳордиқ чиқаринг.

Чаён (24.10 – 22.11). Умидингизни узган



пул маблағи шу ҳафта кутилмаганда келиб тушиши мумкин. Аввалдан режалаштирилмаган сафарга чиқиш эҳтимоли юқори. Бу даврда парҳезга мукка тушмаган маъқул, бу соғлиқнинг ёмонлашувиға олиб келиши мумкин.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Илк даврда ўз



ечимини кутаётган уй юмушлари гирдобига «ғарқ» бўласиз. Яқинларингиз билан муносабатда тушунмовчиликлар юзага келиши мумкин. Ҳафта ўрталарига бориб ишда ҳам, оилада ҳам ҳаммаси изига тушиб кетади. Айниқса, иш қидираётганларга омад кулиб боқади.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ушбу кун-



ларда амалга оширилган таваккалчилик кўпинча омад келтиради. Фақат шошмашошарликка йўл қўйманг. Иш жойингизда кутилмаган ва асосий ўзгаришлар юз беради.

Қовға (21.01 – 19.02). Ёдингиздан



чиққан танишлар яна ҳаётингизга кириб келиши мумкин. Бу ҳафта ўз ғояларингизни раҳбарият билан ўртоқлашиш учун омадли палла бўлиб, уларнинг маъқулланиши эҳтимоли юқори. Барча ишларни режадагидан кўра кўпроқ ва яхшироқ амалга ошириш учун имконият етарли.

Балиқ (20.02 – 20.03). Мазкур ҳафта сиз



учун турли воқеа ва ҳодисаларга бой бўлади. Табиатан меҳнатсеvar бўлганингиз тufайли молиявий жиҳатдан анча ўнгла-ниб оласиз. Ҳафта ўртасида омадли лойиҳалар бошланиши кутилмоқда.

Tezkor tadbir

JINOIY GURUH – PANJARA DRTIDA

Viloyat IIB hamda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor-tadbirida jinoiy guruhlardan birining faoliyatiga chek qo'yildi.

Ma'lum bo'lishicha, joriy yilning 28-yanvar kuni Farg'ona tumanining Oqbi-lol qishlog'ida yashovchi P.S. ismli fuqaro Farg'ona shahrida yashovchi tanishi U.D.ga qo'ng'iroq qilib, Quva tumanida istiqomat qiluvchi shaxsdan qarzini olishda amaliy yordam berishini so'raydi.

U.D. esa ko'pdan beri qarzini bermay yurgan qarzdorga qo'ng'iroq qilib, pulni zudlik bilan egasiga qaytarishni talab qilib po'pisa qiladi. Shundan so'ng barcha ishlar chigallashib ketdi. Qarzdor shaxs pulni bermaslik maqsadida ushbu masalani murosasiz yo'li bilan emas, ko'cha yechimlari orqali o'zining foy-

dasiga hal qilishga urindi. Shu maqsadda B.Sh. ismli obro'li tanishi bilan xufyona uchrashib, masalani hal qilib berishni so'raydi.

B.Sh. esa bu ishga o'zining ko'cha bezorisi sifatida nom qozongan, mush-tumzo'r gumashtalarini jalb etadi. Jinoiy guruh a'zolari qarzini so'rayotgan kishini aldab Farg'ona shahriga chaqirishadi. Keyin uni avtomashinaga o'tqazib, Quva tumanidagi ovloq joyga olib borishadi va urib do'pposlashadi. Unga jaro-hat yetkazib, qo'rqitish yo'li bilan qarz to'liq qoplanganligi to'g'risida majburan tilxat yozdirib olishadi.

Bu «hojatbarorlik» bepul amalga oshirilmagan edi.

Jinoiy guruh a'zolari qarz masalasini ko'cha yechimlari orqali hal qilishgach, evaziga qarzdorning plastik kartasini olib qo'yib, jami 12 mln so'm miqdordagi pul mablag'larini bankomat orqali yechib, o'zlashtirib olishadi.

Bundan tashqari, shu kuni qarzdorning akasidan ham masalani hal qilganligi uchun 5 million so'm pul olib, kissaga urishadi.

Mazkur holat yuzasidan hamkorlikda olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida jinoyatni sodir qilishda gumonlangan shaxslar qo'lga olindi. Ularga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanildi. Hozirda tergov harakatlari olib borilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Jinoyatga jazo muqarrar

QALLOBLARNING QING'IRLIGI

Qalbaki pul tayyorlash va uni muomalaga kiritish na-faqat qonunga zid xatti-harakat, balki mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazuvchi omil hisoblanadi. Afsuski, yurtimizda ana shunday jinoiy qilmish sodir etayotganlar hamon uchrab turibdi.



Jizzaxlik tadbirkor firibgarligi uchun muqaddam bir necha bor sudlangan bo'lsa-da, bundan to'g'ri xulosa chiqarmadi. U namanganlik sherigi bilan o'ylab qo'ygan qing'ir rejasini Navoiy viloyatida amalga oshirishga urindi. Ikkalasi qo'llaridagi soxta 20 ming AQSH dollarini muomalaga kiritish payi-

da bo'lishdi. DXX Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda Navoiy viloyati IIB TQX xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida «uddaburonlar» jinoyat ustida daliliy ashyolar bilan qo'lga olindi.

Ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda. Endi pullarni qalbakilashtirib, muomalaga kiritmoqchi bo'lganlar qonun oldida javob berishga majbur.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Qilmish-qidirmish

– Mayli, faqat mashinani yo'lining chetiga olib qo'yganingiz ma'qul, – dedi xodimlardan biri unga tushuntirarkan. – Bu holatda boshqa avtomobillar harakatiga xalal beryapti.

– Voy vo'o'o'o'o', nima endi yo'lda ham bemalol yura olmaymizmi, aka, – e'tiroz bildirdi haydovchi.

– Hech qanday qarshiligimiz yo'q, biroq siz mashinangizni belgilanmagan joyga to'xtatdingiz.

Shu tariqa, xodim bilan haydovchi o'rtasida bahs paydo bo'ldi. Xodim amaldagi tartiblar haqida ma'lumot berishga urinar, haydovchi esa imkon qadar baland ovozda atrofdagilarning e'tiborini o'ziga jalb qilar edi. Tushunarsiz bu xatti-harakatdan shubhalangan xodimlar uning hujjatlarini tekshirib ko'rmoqchi bo'lishdi. Avvaliga qarshilik ko'rsatgan haydovchi keyinroq hujjatlarni taqdim etdi. Ma'lum bo'lishicha, unga nisbatan to'qqiz marta yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun jarima tayinlangan, shu bois avtomashinaga MIB Andijon viloyati boshqarmasi tomonidan qidiruv e'lon qilingan ekan.

– Bu holatda avtomobilni jarima maydoniga olib kirishimizga to'g'ri keladi, – yuzlandi ichki ishlar xodimi.

– Nimaaaa? Jarima maydoniga, – jazavaga tusha boshladi haydovchi. – Hozir

QONUN KECHIRMAYDI

Insonlarning har bir xatti-harakati uchun munosib javob bor. Afsuski, bugungi kunda bu kabi maslahatlarga qasdma-qasdiga harakat qiladiganlar ko'payib ketdi. Andijon shahridagi eng serqatnov yo'llardan birida o'tkazilayotgan reyd paytida shunday manzara kuzatildi. Yo'lining qatnov qismiga bemalol to'xtab olgan «Lacetti» haydovchisi Ozodbek Olimov (ism-shariflar o'zgartirildi) YHXB xodimlari yoniga kelarkan, ular bilan shunchaki salomlashib qo'ymoqchiligini aytdi.



ko'rsatib qo'yaman jarima maydoni qanaqa bo'lishini.

U shunday dedi-da, yo'lining o'rtasida turgan mashinasi ichida o'tirgan sherigiga telefoniga tasvirga olishini aytdi. U ham xuddi shuni kutib turgandek chaqqonlik bilan telefon kamerasini unga tutdi. «Ko'rib qo'yinglar, bizning ichki ishlar xodimlarini, – haydovchi kamera qarshisida o'zini go'yoki qat-

tiq tazyiqlarga uchragan jabrdiydadek ko'rsata boshladi. – Hujjatlarim joyida, qoidani buzganim yo'q. Ular bo'lsa sababsiz to'xtatishib, mendan 100 AQSH dollari pul talab qilyapti. Aybim nima? Taksichilik qilib, oilamni, bolalarimni zo'rg'a boqayotganim mening aybimmi? Insof bormi o'zi? Qani haqiqat?»

Haydovchi tuhmatdan tarkib topgan «bayonno-

masini» shu joyning o'zida instagramdagi sahifasiga joyladi. Bu bilan kifoyalanib qolmay, unga navbatdagi jarimaga asos bo'luvchi hujjatni rasmiylashtirmasligi uchun xodimlar qo'lidagi planshetni tortib oldi va uni sindirishga harakat qildi. Bu orada ijtimoiy tarmoqdagi videolavhasi ommaga tarqab ketdi. Izohlarda esa ichki ishlar xodimlari sha'niga bildirilgan noo'rin fikrlar urchiy

boshladi. Biroq hech kim «Voqea o'zi qanday bo'ldi? Nega ikkinchi tomonning izohi yo'q?», – deb o'ylab ham o'tirmadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudida sudya Nargizaxon Sharipova raisligida ushbu xatti-harakatlar atroflicha o'rganib chiqildi. Natijada bo'lib o'tgan bu voqeadan keyin haydovchi o'zi bilan bir hovlida istiqomat qiluvchi qarindoshlari bo'lmish ikki ayolga ham jinoiy harakatlar sodir etganligi oydinlashdi. Bunda ayollarining arzi inobatga olindi. Barcha qonunbuzarlik holatlari adolat tarozisida o'lchalanib, qonunbuzarga nisbatan 3 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanildi.

Bu voqea tarbiyaviy saboq sifatida har bir haydovchiga, har bir fuqaroga qaratilgan ogohlantirishdek ta'sir qilmog'i kerak. Qonunni mensimaslik bilan «jasorat» ko'rsatib bo'lmaydi. Haqiqiy mas'uliyat esa yo'lda ham, hayotda ham qoidaga amal qilishdan boshlanadi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Suratli axborot

Ayni kunlarda yurtimizda muborak Ramazon oyi davom etmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimizning alohida tabrigi ham matbuotda e'lon qilindi.



«Yolg'onchi» jumboqining javobi: o'q ovozigga, portlash chog'ida, yong'in o'chirish ekipajlari va politsiya mashinalari sirenalarning shovqiniga uyg'unmagan bu odamning eshik qo'ng'irog'i jirriglashidan uyg'unishi doktor Kvikda shubha uyg'otgandi.

Tadbir

MA'NAVIYAT – KELAJAK POYDEVORI

Ma'naviyatga qaratilgan har bir qadam — kelajakka qo'yilgan mustahkam poydevordir. Ayni maqsadda Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati xodimlarining oila a'zolari «Ma'naviyat marshruti» tadbirlari doirasida teatrga taklif etildi.



Bu kabi ma'naviy tadbirlar tizimida xizmat qilayotgan xodimlarning oila a'zolariga ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlab, farzandlarning dunyoqarashini

Teatrdan ular uchun «12 oy» nomli sahnalashtirilgan spektakl namoyish etildi. Qahramonlarning samimiy obrazlari, sahna bezaklari va jonli ijro tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

kengaytirishga hamda ularning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir etmay qolmaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz,

Navoiy viloyati.

Detektiv boshqotirma

YOLG'ONCHI

Doktor Kvik bilan politsiya kapitani voqea joyiga yetib kelishganida, bu yerda ikkita yong'in o'chirish mashinasi va bitta patrul avtomobili turardi. Ko'p o'tmay yana bir politsiya mashinasi tashvish signalini balandlatgancha yetib keldi. Ushbu avtomobil keskin tormoz berganida, qattiq chiyillash ovozi quloqni qomatga keltirdi. Shundan so'ng haydovchi sirenani o'chirdi. Mashinadan ikki nafar politsiyachi sakrab tushdi. Uy olov ichida qolgan edi. Alanganing tili binoning tomi sari intilardi.

Shu payt ichkaridan jonsiz tanani ko'targancha yong'in o'chiruvchi chiqdi. Tekshirib ko'rilganida, uning qo'lidagi odam ensasiga otib o'ldirilgani aniqlandi. Shundan so'ng politsiya kapitani zudlik bilan surishtirish ishlarini boshlab yubordi.

daqiqa o'tib, deraza ochildi. Ichkaridan egniga pijama kiygan erkak kishi ko'rindi. Nihoyat u eshikni ochib, ostonada serryangancha turaverdi. Politsiya kapitani unga o'zining nishonini va xizmat guvohnomasini ko'rsatib:

– Bezovta qilganimiz uchun uzr.

Sizga bir nechta savol bermoqchi edik, – dedi.


Haligi kishi ko'chada turgan yong'in o'chirish ekipajlari va politsiya mashinalariga ko'zi tushib:

– Xudo haqqi, yong'in yuz berganidan aslo xabarim yo'q edi. Tungi ish smenasidan kelib, dong

qotib uxlab yotgan edim. Meni hozirgina uyg'otib yubordinglar. Shunday bo'lsa-da, barcha savollaringizga bajonidil javob berishga tayyorman, – dedi xushmuomalalik bilan.

– Mening sizga birgina savolim bor, – deya uning gapini bo'ldi doktor Kvik. – Qo'shningizni nima uchun o'ldirdingiz?

Savol: nega doktor Kvik aynan shu kishidan shubhalandi?



Yong'in o'chiruvchilar «tilsiz yov»ni daf etishgach, binoga ataylab o't qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Kimdir alanga chiqaruvchi portlovchi qurilmani uy ichiga ulotqirgan edi. Kapitan boshqa politsiyachilarga qo'ni-qo'shnilarni so'roq qilishni tayinlab, o'zi doktor Kvik bilan ro'paradagi uy tomon yo'l oldi.

Doktor Kvik eshik qo'ng'iroqining tugmasini bosdi. Oradan bir necha



Тақдир синовлари

ОДДИЙ ҚОҒОЗДАН
ДУРДОНА ГУЛДАСТА

Жамиятда шундай инсонлар борки, уларнинг жисмоний имкониятлари чекланган бўлса-да, руҳи, иродаси ва истеъдоди ҳеч бир тўсиқни тан олмайди. Улар ҳаётга ўзгача нигоҳ билан қарайди ва қийинчиликларни имкониятга айлантира олади. Ана шундай имконияти чекланган Дурдона Ирдонова ҳам интилиши, изланиши ва сабр-тоқати билан бугун ўзига хос хунарманд қизга айланган.

Дурдона Пахтачи тумани Зиёвуддин шаҳарчаси Истиқлол кўчасида яшайди. Унинг оёқлари яхши ҳаракатлана олмаганидан 1-гуруҳ ногирони ҳисобланади. Қўлтиқтаёқ билан юрса-да, қўллари билан мўъжиза яратаётган бу қизга онаси унга илк бор ипу-игна тутқазганида, бу шунчаки вақт ўтказиш учун деб ўйлаганди. Аммо Дурдонанинг бармоқлари мато ва қайчини тутиб, илк гулни ясаганда ўзи ҳам кўзларига ишонмади. Чунки бу қоғоз гуллар унинг қўлида жонланди, оддий матолар гулга айланди.

Атрофда имконияти чекланган қиз нима қила оларди, деган қарашлар кўп эди. Лекин бир куни бир аёл у ясаган гулдастани харид қилди. Кейин яна бири. Сўнг унинг қоғоз ва матодан ясаётган гуллари ҳақида эл орасида гап тарқалди. Одамлар Дурдона ясаган гулларни томоша қилиш, гўзаллигидан баҳра олиш учун кела бошлади. Меҳнатини қадрлаб, гулларидан харид ҳам қила бошлашди. Бундан руҳланиб гуллар хилма-хиллигини кўпайтирди.

Бугун 26 ёшни қарши олган қиз устози «Дўстлик» ордени соҳибаси Нозик Йўлдошевнинг кўмаги билан моҳир хунармандга айланди. Меҳнатидан яхши даромад топгач бозори чаққонлашди. Энди у билади, унинг қўллари нафақат гўзал буюмлар, балки умид ҳам ярата олади.

Биз ҳам Дурдонанинг мўъжазгина устaxonасида бўлиб, ҳаракатлари чекланган, аммо истарали, нозик жуссали, бу ёқимтой қизнинг қўллари билан чаққонлик ила гулларни яшаш жараёнини кузатдик. Мато ва рангли қоғозлардан тайёрланган гулдасталар шунчалик кўпки, кўринишидан уларни

ҳатто табиийми деб ушлаб ҳам кўрдик. Ҳаёт Дурдонага ҳаммага хос тенг имконият бермаса-да у ҳеч қачон тақдир олдида бош эгмади.

– Ҳаёт менга синов берди, бироқ бундан нолимайман. Қўлимдан келган хунарим бор. Бу эса менга катта куч, келажакка ишонч бағишлайди. Гарчанд оёқларимда нуқсон бўлгани билан қўлларим орқали орзуларим ушалапти. Тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиб, янада кўпроқ замонавий гулдасталарни кўпайтираман. Ўзим каби ёшларни



хунарли қилиш истагим бор, – дейди қаҳрамонимиз.

Имконият чекланган бўлиши мумкин. Аммо матонат, ирода ва ҳаракат чекланмайди. Биз Дурдона Ирдонова мисолида бунга яна бир бор ишонч ҳосил қилдик.

Умида МАМАДАЛИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



Суратда: Олмалиқ шаҳар ИИБ ХПБ Хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, майор Ирода Мусурмонқулова.

КЕЛГИН, БАҲОР,
СОҒИНДИМ СЕНИ

Сизиб чиқар кўзимдан соғинч,
Келгин, баҳор, соғиндим сени.
Сезилар ҳар сўзимдан соғинч,
Келгин, баҳор, соғиндим сени.

Қандай нафис, эҳ қандай дилгир,
Қабоғимда аста қор эрир,
Келиб дардли ҳаётимда бир
Кулгин, баҳор, соғиндим сени.

Бошда сарсон пайдар-пай ўйим,
Сезилмайди сенла қайғуим,
Сен кетгандан буён ранг-рўйим
Сўлғин... баҳор, соғиндим сени!

Табиатнинг кўзлари юмуқ,
Бошқалардан менинг кўнглим тўқ,
Сендан бошқа соғинганим йўқ,
Тушун, баҳор, соғиндим сени!

Гулгун баҳор, соғиндим сени!..

Абдулла ОРИПОВ,
Ўзбекистон Қаҳрамони.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manziliimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 466.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49975 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.